2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 215 (1814), 2026-yil 17-oktabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ZAMONAVIY ENERGETIKA LOYIHALARI – HUDUDLARDAGI CHINAKAM O‘ZGARISH, AHOLI HAYOTI VA TARAQQIYOT UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN

Prezidentimiz 16-oktabr kuni Xalqaro kongress markazida yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi investorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.





Bugun global energetika tarmog‘ida resurslar, zamonaviy texnologiya va investitsiyalar uchun shiddatli kurash kuzatilmoqda. O‘z navbatida, ayni yo‘nalishdagi har bir yangi quvvat mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos “tashrif qog‘ozi”ga aylandi. Sababi, barqaror energiya bo‘lmagan joyda sanoat sur’ati susayadi, tadbirkorlik orqaga ketadi va investitsiya oqimi to‘xtaydi.

Mana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda keyingi yillarda energetika tizimi tubdan yangilanmoqda. Sohaga xususiy sarmoyani jalb etish va “yashil” energetikani rivojlantirish yo‘lidagi islohotlar iqtisodiy taraqqiyotimizda yangi ufqlarni ochyapti.

Davlatimiz rahbari raisligida yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi islohotlarni jadallashtirish va sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yuzasidan sarmoyadorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotda ham aynan ushbu strategik masalalar muhokama markazida bo‘ldi. Prezidentimiz barqaror energiya ta’minoti ishlab chiqarish sanoati rivojidan tortib, aholi farovonligi bilan bog‘liq barcha jarayon uchun muhimligini ta’kidladi.

Muloqotda erishilgan natijalar bilan bir qatorda investitsiyalar samaradorligini oshirish va tizimni uzoq muddatli rivojlantirish vazifalari aniq belgilab berildi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar rivojini yangi bosqichga olib chiqish eng asosiy ustuvor vazifa etib belgilandi.

Energetika barqarorligi yo‘lidagi islohotlar qamrovi va samarasiga doir raqamlar qayd etilar ekan, beixtiyor bundan o‘n yil avvalgi holatlar yodga tushaveradi. Oddiy bir telefonni quvvatlash uchun qo‘shni qishloqqa yugurganingiz, elektr energiyasi ta’minotiga o‘rnatilgan cheklov sabab tegirmonda bir qop donni un qilish uchun oylab navbat kutganingiz...

Bugun vaziyat tamoman boshqacha. Qat’iy siyosiy iroda, mashaqqatli mehnat evaziga tizim sezilarli rivojlandi, muammolarga barham berildi.

O‘sha paytlari sohadagi muammolar faqat eskirgan stansiyalar va quvvat yetishmovchiligi bilan cheklanmagan, nazarimizda. Iqtisodiyot o‘sib, elektr energiyasiga talab keskin ortayotgan bir sharoitda tizimga butunlay yangicha yondashuv zarur edi. Energetika bozorining xususiy sarmoya uchun ochilishi va tizimga tatbiq etilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ana shu ehtiyojga munosib javob bo‘ldi. Natijada o‘tgan davrda sohaga 35 milliard dollar investitsiya kiritilib, hamkor davlatlar soni o‘ndan oshdi va xususiy sektor ishtiroki uchun mustahkam zamin yaratildi.

Sarmoya oqimi ko‘payishi va xalqaro hamkorlik kengayishi energetika sohasidagi o‘zgarishlarning yana bir muhim yo‘nalishi — energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga ham yo‘l ochdi. Mamlakatimizda “yashil” quvvatlar 11,1 gigavattni tashkil etayotgani, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami generatsiyadagi ulushi 31 foizga yetgani bu boradagi muhim natijalardir. Muloqot kuni umumiy qiymati 4 milliard 700 million dollarlik yana 6 ta yirik loyiha bo‘yicha bitimlar imzolangani tarmoqdagi ushbu ijobiy sur’atni izchil davom ettirishga xizmat qiladi. Binobarin, mazkur kelishuvlar doirasida yurtimizda qo‘shimcha 3000 megavatt generatsiya va 400 megavatt energiya saqlash quvvatlari barpo etiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi o‘tgan yillarda energetika loyihalarini tayyorlash va investorlar bilan ishlash bo‘yicha yurtimizda katta tajriba to‘planganini alohida qayd etdi. Endi bu boradagi hamkorlik butunlay yangi bosqichga ko‘tariladi: bundan buyon har bir investitsiya shunchaki yangi quvvat yaratish bilan cheklanmay, tizimning ishonchliligini oshirishi va yo‘qotishlarni kamaytirishi shart. Bu talab 2030-yilgacha 22 ming megavatt yangi quvvat yaratishga qaratilgan ulug‘vor maqsadning bosh mezonidir. Ushbu marra egallangach, yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 129 milliard kilovatt-soatdan oshib, undagi “yashil” energiya ulushi 54 foizga yetadi.

Ushbu yo‘nalishda islohotlar boshlangan dastlabki davrda “yashil” quvvatlarni tezroq ishga tushirish maqsadida loyihalar ko‘pincha investorlar taklif qilgan hududlarda joylashtirildi. Bu yondashuv qisqa muddatda yirik sarmoyani jalb etish imkonini bergan bo‘lsa-da, ayrim joylarda quvvatlarning haddan tashqari to‘planishi, o‘z navbatida, elektr energiyasini boshqa hududlarga yetkazish xarajatining ortishiga sabab bo‘ldi.

Prezidentimiz shundan kelib chiqib, bizga alohida-alohida elektr stansiyalari emas, uzviy bog‘langan energetika tizimi kerakligini ta’kidladi.

Endi bu boradagi tizim butunlay o‘zgaradi: qaysi hududda qanday quvvat zarurligi oldindan rejalashtirilib, tayyor loyihalar ochiq tanlovga chiqariladi. Bunda yer maydoni, tarmoqqa ulanish nuqtasi, to‘lov shartlari avvaldan e’lon qilinib, barcha investor uchun talab teng bo‘ladi. Ushbu yangi yondashuvning ilk amaliy bosqichi sifatida yaqin kunlarda umumiy quvvati 2200 megavattli 6 ta quyosh va shamol stansiyasi loyihasi ochiq tanlovga qo‘yilishi ma’lum qilindi.

Mamlakatimiz tarixida ilk bor tizimni uzoq muddatli rivojlantirish maqsadida energetika sohasining 2050-yilgacha bo‘lgan milliy bosh rejasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilikka e’lon qilinadi. Kelgusi yil 1-martgacha tarmoqlarga ulanish imkoniyati xaritasi, 1-iyulga qadar esa to‘liq bosh reja taqdim etiladi. Ushbu strategik hujjatning ahamiyati shundaki, u qaysi hududda elektr energiyasiga ehtiyoj ortishi va yangi quvvatlar qayerda eng yuqori samaradorlik bilan ishlashini aniq ko‘rsatib beradi.

So‘nggi besh yilda elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilishga 2 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi. Yangi generatsiya quvvatlari ortib borayotgan sharoitda tarmoqlarni yangilash va energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki elektr energiyasini ishlab chiqarish bilan birga, uni iste’molchiga o‘z vaqtida va ortiqcha yo‘qotishlarsiz yetkazib berish ham muhim.

Ayni maqsadda 2030-yilgacha 5000 kilometr elektr tarmog‘i tortilib, 16 ta yirik podstansiya quriladi, energiya saqlash quvvatlari 4,5 gigavattga yetkaziladi. Loyihalarning katta qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida amalga oshiriladi. Generatsiya, uzatish va saqlash imkoniyatlarining uyg‘un rivojlanishi ta’minot barqarorligini mustahkamlash va investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH PREZIDENTINING MAXSUS VAKILI BILAN BO‘LAJAK TADBIRLAR KUN TARTIBINI MUHOKAMA QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gorni qabul qildi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

AQSH Davlat kotibi Marko Rubioning O‘zbekistonga bo‘lajak tashrifi, “C5+1” formatidagi vazirlar uchrashuvi hamda O‘zbekiston — Amerika ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘lajak tadbirlarni mazmunan boyitish, yangi tashabbuslarni ishlab chiqish va ustuvor yo‘nalishlarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish muhimligi bildirildi.

Qisqa vaqt ichida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va qo‘shma ishbilarmonlik tashabbuslarini ilgari surishning samarali mexanizmiga aylangan ishbilarmonlik kengashining ahamiyati ortib borayotgani alohida ta’kidlandi.

Ikki mamlakat yetakchilari ishtirokida o‘tkaziladigan bo‘lajak xalqaro tadbirlar rejasi yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON – AQSH: O‘ZARO MANFAATLARGA ASOSLANGAN IQTISODIY HAMKORLIK

AQSH Davlat kotibi Marko Rubioning “C5+1” sammitida ishtirok etish uchun Samarqandga rejalashtirilgan tashrifi munosabati bilan Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi “Markaziy Osiyo — AQSH” hamkorlik formati rivojlanishining istiqbollari hamda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish imkoniyatlarini tahlil qildi.





Tashriflar tarixi

AQSH Davlat kotiblarining O‘zbekistonga tashrifi tarixi 1992-yil fevraldan boshlangan. Ular orasida 2015-yil 1-noyabrda Jon Kerrining Samarqandga tashrifi alohida ahamiyatga ega. Aynan shu kuni Markaziy Osiyoning beshta davlati va AQSH tashqi ishlar vazirlarining ilk uchrashuvi bo‘lib o‘tdi hamda “C5+1” hamkorlik formatiga asos solindi.

AQSH Davlat kotibi Marko Rubioning bo‘lajak tashrifi ikki tomonlama muzokaralarni mintaqaviy muloqot bilan birga olib borish amaliyotining davomi bo‘ladi.

Kelasi haftada AQSH Davlat kotibining 100 dan ortiq kompaniya vakillaridan iborat delegatsiyaga boshchilik qilib Samarqandga kelishi kutilmoqda. Tashrif doirasida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston tashqi ishlar vazirlari ishtirokida “C5+1” formatidagi uchrashuv o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Uchrashuvning asosiy yo‘nalishlari sifatida mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, energetika xavfsizligini ta’minlash hamda mintaqadagi umumiy masalalar bo‘yicha hamkorlikda yechimlar ishlab chiqish belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazish nazarda tutilgan.

Mazkur tashrif O‘zbekiston uchun avval kelishilgan loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, yangi texnologiyalarni jalb etish va xalqaro kapital bozorlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Amerika biznesining 100 dan ortiq kompaniyasi vakillari ishtirok etishi ushbu yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni rivojlantiradi.

Davomi 3-betda

Prezidentimiz uchrashuvda generatsiya, energiya saqlash va tarmoqlarni birgalikda qamrab oladigan kompleks loyihalarga ustuvorlik berish zarurligini ta’kidladi. Bunday yondashuv har bir yangi obyektni umumiy tizimning bir qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 17-oktabr, 215-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ZAMONAVIY ENERGETIKA LOYIHALARI – HUDUDLARDAGI CHINAKAM O‘ZGARISH, AHOLI HAYOTI VA TARAQQIYOT UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, energiya saqlash quvvatlarini 4,5 gigavattga yetkazish rejasi qayta tiklanuvchi energetika imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Quyoshli vaqtda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini saqlash va talab yuqori bo‘lgan paytda undan foydalanish imkoniyati energiya ta’minotini yanada moslashuvchan qiladi. Uzoq muddatli energiya saqlash uchun gidroakkumulyatsiya stansiyalarini qurishda investorlar bilan hamkorlik qilish rejalashtirilayotgani ham sohada texnologik yechimlarni kengaytirishga qaratilgan.

Shu sababli Prezidentimiz uchrashuvda generatsiya, energiya saqlash va tarmoqlarni birgalikda qamrab oladigan kompleks loyihalarga ustuvorlik berish zarurligini ta’kidladi. Bunday yondashuv har bir yangi obyektni umumiy tizimning bir qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi. Stansiyaning ishlab chiqarish quvvati, energiyani saqlash imkoniyati va uni iste’molchiga yetkazib beruvchi infratuzilma o‘zaro muvofiqlashtirilsa, sarmoyadan olinadigan iqtisodiy samara ham ortadi.

Energetikani uzoq muddatli rejalashtirish mamlakatimizning xalqaro bozorlardagi imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Ozarbayjon va Qozog‘iston bilan Kaspiy orqali “yashil” energiyani Yevropaga yetkazish loyihasining amaliy bosqichga o‘tishi, Afg‘oniston va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoni O‘zbekiston uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Biroq eksport salohiyati faqat ortiqcha elektr energiyasiga emas, balki ishonchli tarmoqlar, raqobatbardosh narxlar va puxta xalqaro kelishuvlarga ham bog‘liq. Shu ma’noda, ichki energetika tizimini mustahkamlash mamlakatimizning tashqi bozorlardagi mavqeini belgilaydigan muhim omildir.

Ishlab chiqarilgan energiyaning iste’molchigacha yetib borishigacha bo‘lgan yo‘ldagi har bir yo‘qotish qo‘shimcha xarajatni anglatadi. Prezidentimiz alohida qayd etgan “Eng arzon energiya — tejalgan energiya” tamoyili ham shu jihatdan dolzarb. Ijtimoiy soha obyektlari va suv xo‘jaligidagi nasos stansiyalarini energiya tejamkor texnologiyalar asosida modernizatsiya qilishga xususiy sarmoyani jalb etish, investorlarga tejalgan energiya va karbon krediti orqali daromad olish imkonini yaratish ko‘zda tutilgan. Bu mexanizmlar samara berishi uchun tejamkorlik natijalari aniq hisoblanishi, ekologik talablarga rioya qilinishi va manfaatlar adolatli taqsimlanishi zarur.

Energiyani tejash va samarali taqsimlashga qaratilgan islohotlar mahalliy sanoat uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektr stansiyalari va tarmoqlar qurilishi mis mahsulotlari, kabel, transformator, metall konstruksiyalar hamda qurilish materiallariga talabni oshiradi. Mahalliy korxonalar ushbu talabni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan qondira olsa, energetikaga kiritilayotgan sarmoya milliy sanoat rivojiga xizmat qiladi. Shunda investitsiyalarning samarasi yangi quvvatlar va barqaror elektr ta’minoti bilan cheklanmay, mamlakatda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatda ham namoyon bo‘ladi.

Yig‘ilishda mahalliy korxonalarning sifat, narx va standartlar bo‘yicha raqobatbardoshligini oshirish muhimligi ta’kidlandi. Zero, energetika loyihalari milliy sanoat uchun yangi bozor yaratmoqda. Mahalliy korxonalar jarayon bilan bog‘liq paydo bo‘ladigan talabni sifatli mahsulot va o‘z vaqtida yetkazib berish orqali qondira olsa, investitsiyalar mamlakatda ko‘proq qo‘shilgan qiymat yaratishga xizmat qiladi.

Buning uchun tabiiy resurslar, sanoat salohiyati, malakali muhandislar va bilimli yoshlarni ilg‘or texnologiyalar hamda xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish zarur. “O‘Z” g‘oyasining iqtisodiy mazmuni ham milliy imkoniyatlarni rivojlantirish, dunyo bilan teng hamkorlik qilish va global bozorda munosib o‘rin egallashda yorqin aks etadi.

Energetika sohasidagi transformatsiya nafaqat yangi quvvatlar yaratish, balki ichki ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va mahalliylashtirish darajasini oshirishni ham taqozo etmoqda. Sanoat kooperatsiyasining yorqin misolini Xitoyning “China Energy” kompaniyasi 8 ta energiya saqlash stansiyasi qurilishida qariyb 40 foiz mahalliy mahsulotlardan foydalanganida ham ko‘rish mumkin. Buning qiymati 200 million dollarga yaqinlashdi.

Umuman olganda, o‘tgan yili tarmoqdagi loyihalarda mahalliy tovar va xizmatlar hajmi 740 million dollarga yetgan bo‘lsa, davlatimiz rahbari ushbu ko‘rsatkichni yana 3-4 barobar oshirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatib o‘tdi. Hozir katta hajmda import qilinayotgan yuqori kuchlanishli uskunalar va shamol generatorlari butlovchi qismlarini yurtimizda ishlab chiqarish uchun 850 million dollarlik 12 ta istiqbolli loyiha tayyorlangan. Xususan, Jizzax viloyatining Forish tumanida quriladigan kichik va modulli atom elektr stansiyasi uchun zarur mahsulotlarni tayyorlash maqsadida aynan shu hududda soliq va bojxona imtiyozlariga ega maxsus sanoat zonasi tashkil etiladi.

Shuningdek, neft-gaz sektorida xom-ashyoni chuqur qayta ishlash va tizimli qidiruv ishlari orqali qo‘shilgan qiymat yaratish ko‘lami kengaytirilmoqda. Ayni paytda “SOCAR” va “British Petroleum” kompaniyalari bilan Ustyurtdagi 6 ta investitsiya blokida geologiya-qidiruv ishlari bajarilayotgan bo‘lsa, xorijlik sheriklar uchun yana 128 ta yangi blok tayyorlandi. Bu borada gazdan nafaqat elektr energiyasi olish, balki undan Buxorodagi MTO (metanoldan olefin olish) loyihasini hayotga tatbiq etishda foydalanish ham ustuvor vazifadir.

Islohotlarning ichki bozorga ta’siri sifatida ilgari davlat monopoliyasida bo‘lgan suyultirilgan gaz ta’minoti tizimi ham Andijondagi pilot loyiha asosida bosqichma-bosqich xususiy sektor boshqaruviga beriladi va kelasi yildan bu tajriba butun respublika bo‘ylab yoyiladi.

Yangilanayotgan energetika tizimining barqarorligi, eng avvalo, xalqaro talablarga mos zamonaviy kadrlar salohiyati bilan belgilanadi. Bu yo‘nalishda Saudiya Arabistoni kompaniyasi Qoraqalpog‘iston, Buxoro va Sirdaryodagi texnikumlarni zamonaviy jihozlab, har yili yuzlab yoshlarni yangi yo‘nalishlarda o‘qita boshlagani diqqatga sazovor. Davlat bunday tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab, investorlarga texnikumlarni boshqaruvga berishga tayyorligi bildirildi.

Shuningdek, kelasi o‘quv yilidan mahalliy oliygohlarda sohaviy kvotalar oshiriladi va dunyoning eng yetakchi universitetlarida tahsil olish uchun har yili 50 nafar yoshga davlat granti ajratiladi. Bundan tashqari, yirik sarmoyadorlar duch keladigan murakkab infratuzilmaviy va huquqiy masalalarni tezkor hal etish maqsadida Prezident Administratsiyasi rahbari boshchilik qiladigan Yoqilg‘i-energetika sohasida investorlar kengashi tashkil etiladigan bo‘ldi.

Yurtimizda energetikaga iqtisodiyotning oddiy tarmog‘i emas, balki xalqimiz farovonligi va kelajagimizning mustahkam tayanchi sifatida qaralmoqda. Investorlar bilan o‘tkazilgan tarixiy ochiq muloqotning bosh g‘oyasi ham shunga monand: sohaga shunchaki quruq kapital jalb etish emas, balki o‘zaro ishonch va mas’uliyatga asoslangan haqiqiy sheriklik madaniyatini yaratish. Zero, har bir yangi loyiha hududlar rivoji va odamlar hayotiga yangi nur, yangi sur’at olib kiradi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bugun yurtimizda boshlangan global yuksalish xorijlik hamkorlarning muvaffaqiyati uchun ham keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Davlatimiz rahbari tadbir yakunida investorlar bilan muloqot qilib, ularning soha rivojiga doir fikr va takliflarini tingladi, o‘zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi investorlar kengashining birinchi yig‘ilishi doirasida O‘zbekiston — Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi, “ACWA” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Muloqot davomida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish va ustuvor qo‘shma loyihalarni jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda Saudiya Arabistoni kompaniyalarining mamlakatimiz bozoriga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Buning natijasida “yashil” energetika, zamonaviy infratuzilmalar, yuqori texnologiyalar, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Tomonlar erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish orqali ikki tomonlama amaliy hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga tayyor ekanini qayd etdilar.

Uchrashuv yakunida saudiyalik investorlar O‘zbekistonda yaratilgan qulay investitsiya muhiti uchun yana bir bor minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi investorlar kengashining yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Ozarbayjonning “SOCAR” kompaniyasi rahbari Rovshan Najaf va “British Petroleum” kompaniyasining katta vitse-prezidenti Jovanni Kristofoli bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqot chog‘ida energetika sohasida ushbu yetakchi kompaniyalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ustyurt platosidagi uglevodorod konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha navbatdagi amaliy chora-tadbirlar muhokama qilindi. Buyuk Britaniyaning “British Petroleum” kompaniyasi ushbu yirik loyihaga qo‘shilgani yuqori baholandi.

Neft-gaz sohasida yangi loyihalarni ilgari surish, neft va neft mahsulotlarini uzoq muddatli yetkazib berish va sotish tarmog‘ini yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Cengiz Holding” boshqaruvi raisi Mehmet Jengizni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo hajmi oshib, yirik investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

“Cengiz Holding” bilan muloqot davomida energetika, geologiya va infratuzilma sohalaridagi loyihalarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, issiqlik elektr stansiyalarini barpo etish hamda elektr energiyasini taqsimlash tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan istiqbolli loyihalar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi investorlar kengashining birinchi yig‘ilishi doirasida Turkiyaning “Aksa Enerji” kompaniyasining direktorlar kengashi raisi Jamil Kazanchini qabul qildi.

Suhbat davomida kompaniya bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, xususan, uning O‘zbekiston energetika tarmog‘ini rivojlantirish va texnologik modernizatsiya qilish loyihalarida ishtirok etish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tomonlar aniq loyihalar bo‘yicha ishlarni jadallashtirishga kelishib oldilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida Yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi investorlar kengashining birinchi yig‘ilishi doirasida Birlashgan Arab Amirliklarining yetakchi kompaniyalari rahbarlarini qabul qildi.

Uchrashuvda “Masdar” bosh ijrochi direktori Muhammad Jamil al-Ramahiy va “AMEA Power” raisi Husayn al-Novays ishtirok etdi.

Muloqot chog‘ida Amirliklar bilan strategik sheriklik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon o‘zaro savdo hajmi 40 foizga o‘sdi. Yirik investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Suhbat yakunida “yashil” energetika, zamonaviy infratuzilmalar, tarmoqlar va sanoat kooperatsiyasi, turizm va xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlardagi loyihalarni jadallashtirish hamda kengaytirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi xorijiy investorlar kengashining yig‘ilishi doirasida Xitoyning yetakchi kompaniyalari — “CAMCE”, “China Energy” va “Sinoma Energy” rahbarlarini qabul qildi.

Uchrashuvda qayta tiklanuvchi energetika, energiya saqlash, chiqindini qayta ishlash va suv ta’minoti sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

Xitoy kompaniyalarining Andijon viloyatida logistika xabini tashkil etish, agrovoltaikani rivojlantirish hamda neft-gaz sohasidagi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi investorlar kengashining birinchi yig‘ilishida qatnashish uchun yurtimizga tashrif buyurgan O‘monning “Voltamp Energy” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Sayyid Ayman al-Busaydiyni qabul qildi.

O‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, quyosh elektr stansiyalarini barpo etish va yuqori kuchlanishli transformatorlar ishlab chiqarish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida kompaniya ishtirokidagi joriy va yangi loyihalarni “yo‘l xaritasi” asosida amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MAMLAKATIMIZNING OHICHK SAMMITIDAGI TASHABBUSLARI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-15-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan Ozarbayjonda bo‘ldi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash (OHICHK)ning yettinchi sammitida ishtirok etdi hamda qator mamlakatlar yetakchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.



Xorijiy ekspert va tahlilchilar mazkur tashrifning O‘zbekiston — Ozarbayjon sherikligini yanada kengaytirish hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini e’tirof etdi. Ular o‘z tahlillarida ikki tomonlama munosabatlar va ko‘p tomonlama maydonlarni, xususan, OHICHKni Osiyo makonida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish hamda Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda qulay imkoniyat sifatida baholamoqda.

Ilgar VELIZADE,
siyosatshunos va tahlilchi (Ozarbayjon):

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning OHICHK sammitidagi nutqi rasmiy Toshkentning o‘zi ishtirok etayotgan xalqaro maydonlar faoliyatiga izchil tarzda amaliy mazmun bag‘ishlashga intilayotganini yana bir bor namoyon etdi. O‘zbekiston diplomatiyasi ushbu tuzilmalarning bunyodkorlik salohiyatidan tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston yetakchisi Osiyoda yaxlit ishonch infratuzilmasini shakllantirishga urg‘u berib, tegishli konsepsiya ishlab chiqishni taklif qildi. Ushbu tushuncha zamirida davlatlararo munosabatlarga doir aniq tamoyillar yotadi: xatti-harakatlarning oldindan ko‘ra bilinishi, majburiyatlarga sodiqlik va qo‘shma loyihalarni rivojlantirish mojarolarning oldini olish uchun mustahkam poydevor yaratishi lozim. Bunday yondashuvda transport va energetik bog‘liqlik, savdo-sotiq, raqamli hamkorlik hamda gumanitar almashinuvlar ishonchni mustahkamlashning amaliy vositalariga aylanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan texnologik ishonch va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha Osiyo tashabbusi alohida e’tiborga loyiqdir. Uni hayotga tatbiq etish maqsadida mutaxassislar umumiy tavsiyalar ishlab chiqadigan va amaliy chora-tadbirlarni kelishib oladigan OHICHK ekspertlar maydonini yaratish ko‘zda tutilgan.

Bu o‘rinda Toshkent zamonamizning eng nozik muammolaridan biriga e’tibor qaratmoqda: texnologik taraqqiyot davlatlarning imkoniyatlarini kengaytirishi, ayni paytda ular o‘rtasidagi tafovutni qisqartirishi kerak. Suvni tejaydigan texnologiyalar, “yashil” energetika



va atrof-muhit holatini kuzatishga urg‘u bergan holda iqlim barqarorligi sohasida sheriklik qilish bo‘yicha taklif ham xuddi shunday aniq va mazmunli yangradi.

O‘zbekistonning 2027-yilda Inson salohiyatini rivojlantirish forumini o‘tkazishga tayyorligi ushbu kun tartibining muhim davomi bo‘ldi. Ta’lim, yoshlar va xotin-qizlar uchun imkoniyatlar yaratish, raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlarini himoya qilish bo‘lajak muhokamalarning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Kelgusi ikki yilga mo‘ljallangan OHICHK harakatlar dasturi esa gumanitar hamkorlikka izchillik bag‘ishlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston diplomatiyasining o‘ziga xos uslubi — keng qamrovli siyosiy maqsadlarni birgalikdagi faoliyatning aniq yo‘nalishlari bilan bog‘lay olish mahorati aynan shunda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston yetakchisi nutqining ahamiyati, eng avvalo, turli manfaatlarga ega davlatlar uchun o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladigan tushunarli kun tartibini taklif etishidadir. Osiyo uchun bunday bunyodkor va amaliy yondashuv yuksak e’tirofga sazovor.

Yuriy SIGOV,
Rossiya davlat gumanitar universiteti xalqaro munosabatlar kafedrasi dotsenti:

— OHICHK Osiyo qit’asi davlatlarini birlashtiruvchi nufuzli xalqaro mintaqaviy forum bo‘lib, asosiy vazifasi hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni oshirish va Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi nufuzini yuksaltirishdan iborat.

O‘zbekistonning mazkur forumdagi ishtiroki rasmiy Toshkentning Osiyo muammolarini hal etishdagi rolini oshirish, mintaqadagi davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan umumiy siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bunday muloqot maydonlari mamlakatlarga umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirish va dolzarb masalalar bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi hamda sheriklik aloqalari izchil rivojlanishini alohida qayd etgan bo‘lardim. Ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy muloqot faollashuvi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, savdo aloqalarini rivojlantirish va transport-logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Dengizga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Yaqin Sharq, Janubiy Kavkaz, Turkiya va ular orqali Yevropa bozorlari bilan iqtisodiyotni bog‘laydigan tranzit yo‘laklarini yo‘lga qo‘yishda Bokuga muhim sherik sifatida qaraydi. Shu nuqtai nazardan, Ozarbayjon bilan hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiyalash, eksport yo‘nalishlarini kengaytirish va mintaqalararo transport bog‘liqligini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston bugun Markaziy Osiyo kelajagini belgilab beruvchi ko‘plab jarayonlar markazida turibdi. Uning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon bilan munosabatlari tobora chambarchas bog‘lanib bormoqda.

Bu mintaqaviy hamkorlikning yangi imkoniyatlarini ochib, iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, transport yo‘laklarini rivojlantirish va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoqda.

“Dunyo” AA

BARQARORLIKNI TA’MINLASHGA QARATILGAN MULOQOT MAYDONI

O‘zbek diplomatiyasida asosiy urg‘u aniq natijaga qaratilgan. Chunki O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida unumdorlik tamoyilini bosh mezon etib belgilagan. Zero, imzolangan har bir hujjat ortida yangi iqtisodiy yo‘laklar, investitsiyalar va barqarorlik turishi shart.

Yurtimizning global maydondagi tashabbuskorligi aynan shu maqsadga, milliy manfaatlarni ta’minlashga qaratilgan. Biz buning amaliy ifodasini O‘zbekistonning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash platformasidagi tashabbuslarida, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan qadamlarda ko‘rishimiz mumkin.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash qit’ada hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan xalqaro muloqot maydonidir.

Prezidentimiz Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 14-15-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi va Bokuda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida ishtirok etdi.

Kengashning muhim xususiyati shundaki, u umumiy muammolarni muloqot va o‘zaro kelishilgan yondashuvlar asosida hal etishga intiladi. Tashkilot BMT, YXHT, SHHT va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan munosabatlarni rivojlantirish borasida keng ko‘lamdagi sa’y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

Osiyo dunyo iqtisodiyotining muhim markazlaridan biri. Ammo uning to‘liq imkoniyatlarini ishga solish uchun mamlakatlar o‘rtasida ishonch, tinchlik va o‘zaro bog‘liqlik ham bo‘lishi kerak.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu nufuzli anjumandagi nutqida O‘zbekiston manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, har qanday nizo va kelishmovchiliklar faqat tinch yo‘l bilan, siyosiy-diplomatik vositalar orqali, xalqaro huquq va barcha tomonlar manfaatlarini inobatga olgan holda hal etilishi zarurligini ta’kidladi.

Shuningdek, sammitda Texnologik ishonch va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha Osiyo tashabbusi ilgari surildi. Uni amalga oshirish doirasida OHICHK huzurida ekspertlar maydonini tashkil etish taklifi bildirildi. Shu bilan birga, OHICHKga a’zo davlatlarning iqlim o‘zgarishlariga moslashish borasidagi sa’y-harakatlarini birlashtirish maqsadida iqlim barqarorligi bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

Bu tashabbuslarning mohiyati shundaki, O‘zbekiston muammolarga yechim bo‘ladigan amaliy hamkorlik kun tartibini shakllantirishga intilmoqda. Unda xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot, ekologik barqarorlik va xalqlar

Munosabat



Shavkat TO‘RAYEV,
falsafa fanlari doktori,
professor

o‘rtasidagi ishonch bir-biridan ajralmas masalalar sifatida qaralmoqda.

Zero, O‘zbekiston uchun kengashda ishtirok etish, eng avvalo, milliy iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish va xalqaro sheriklikni kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyat demakdir. Chunki bu maydonda mamlakatimiz katta bozorlarga, investitsiya va texnologik salohiyatga ega davlatlar bilan bevosita muloqot qiladi. Bu esa savdo aloqalarini kengaytirish, sarmoya jalb etish va hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini topish uchun sharoit yaratadi.

Ayniqsa, transport va logistika sohasidagi hamkorlikning ahamiyati katta. O‘zbekiston okeanlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega emasligi tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalashni muhim vazifaga aylantiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Janubiy va Sharqiy Osiyo, shuningdek, Yaqin Sharq bozorlari bilan aloqalarni rivojlantirish, eksport geografiyasini kengaytirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mahalliy korxonalarni xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish zarurati har doim dolzarb.

Kengashdagi faol ishtirok mamlakatimizning BMT, SHHT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorligini to‘ldirishi bilan ahamiyatlidir. Natijada O‘zbekiston o‘z tashabbuslarini ilgari surish va o‘zaro manfaatli yechimlarni kelishish uchun muhim muloqot maydoniga ega bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON – AQSH: O‘ZARO MANFAATLARGA ASOSLANGAN IQTISODIY HAMKORLIK



Xurshid ASADOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

“Markaziy Osiyo +” formatining rivojlanishi

Tashqi hamkorlar ishtirokidagi mintaqaviy muloqot formatlari Markaziy Osiyo diplomatiyasining doimiy qismiga aylanib bormoqda. 2025-yil aprelda Samarqandda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tgan. Uning yakunlari bo‘yicha tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. Shu yil iyunda Ostonada Xitoy bilan ikkinchi sammit, dekabrda Tokioda Yaponiya bilan birinchi sammit, 2026-yil sentyabrda esa Seulda Koreya Respublikasi bilan birinchi sammit o‘tkazildi.

Ushbu muloqot maydonlarida muhokama qilinadigan iqtisodiy masalalar ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lib, transport, energetika, strategik ahamiyatga ega xomashyo resurslari, sanoat va raqamli texnologiyalar sohalarini qamrab oladi.

“C5+1” formati Amerika biznesi va moliya institutlari bilan hamkorlik qilish uchun alohida imkoniyat yaratadi. 2015-yildan buyon amal qilib kelayotgan ushbu format doirasida iqtisodiyot, energetika, atrof-muhit muhofazasi va xavfsizlik masalalari bo‘yicha hamkorlik qilinmoqda.

Mintaqaviy muloqot tranzit, transchegaraviy infratuzilma va ta’minot zanjirlari barqarorligi kabi alohida bir mamlakat doirasida hal etib bo‘lmaydigan masalalarni birgalikda ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Ushbu masalalarni Markaziy Osiyoning beshta davlati va AQSHning salohiyatli investorlari ishtirokida yagona muloqot maydonida muhokama qilish milliy loyihalarni amalga oshirishda mintaqaviy sharoitlarni hisobga olish va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

“C5+1” birinchi sammiti natijalari

Markaziy Osiyo davlatlari va AQSH Prezidentlari darajasidagi birinchi “C5+1” sammiti 2023-yil 19-sentabrda Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tdi. 2024-yil fevralda strategik ahamiyatga ega minerallar bo‘yicha muloqotning ilk yig‘ilishi, mart oyida esa Olmaotada “B5+1” formatidagi birinchi biznes-forum o‘tkazildi.

Mazkur biznes-forum tadbirkorlarga investitsiya muhiti va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya masalalarini muhokama qilishda bevosita ishtirok etish imkonini berdi. Shu tariqa siyosiy darajadagi muloqot tarmoqlar va ishbilarmon doiralar o‘rtasidagi amaliy hamkorlik bilan to‘ldirildi.

2025-yil 6-noyabrda Oq uyda o‘tkazilgan sammit hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. AQSH Savdo vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, biznes-forum doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha umumiy qiymati 25 milliard dollardan ortiq savdo va investitsiya kelishuvlari e’lon qilindi. Ular aviatsiya, qishloq xo‘jaligi texnikasi, temir yo‘l infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar hamda strategik ahamiyatga ega minerallarni qazib olish sohalarini qamrab oladi.

Sammitda Prezidentimiz investitsiya va savdo sohalaridagi hamkorlikni muvofiqlashtirishni kuchaytirish, Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz va Yevropa bilan bog‘lovchi transport hamda energetika loyihalarini rivojlantirish, shuningdek, strategik ahamiyatga ega minerallarni qidirish, qazib olish va chuqur qayta ishlash bo‘yicha hamkorlikni kengaytirishni taklif etdi. Ilgari surilgan tashabbuslar qatoridan navbatdagi sammitni Samarqandda o‘tkazish taklifi ham o‘rin oldi.

Hamkorlikning keyingi bosqichida asosiy masala yuqori darajada qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish uchun loyihalarning tayyorligi va moliyalashtirish manbalarini ta’minlashdan iborat. Aviatsiya sohasida bu aviatsiya texnikasini yetkazib berish va undan foydalanish, sanoatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va ishga tushirish, mineral xomashyo sohasida esa qayta ishlash texnologiyalarini o‘zlashtirish hamda tayyor mahsulot xaridorlari bilan shartnomalar tuzishni nazarda tutadi.

Ikki tomonlama uchrashuv va yangi investitsiya mexanizmlari

Mintaqaviy hamkorlik O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi bevosita muloqotga ham tayanadi. Prezidentimizning 2018-yil may oyida AQSHga rasmiy tashrifi davomida Oq uyda AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan muzokaralar o‘tkazildi hamda “strategik sheriklikning yangi davri” boshlangani to‘g‘risida qo‘shma bayonot qabul qilindi.

2025-yil sentabrda ikki davlat rahbarlari Nyu-Yorkda yana uchrashdi, 6-noyabrda esa Vashingtonda muzokaralar o‘tkazdi. 2026-yil fevralda O‘zbekiston Prezidenti Tinchlik kengashining ta’sis yig‘ilishida ishtirok etish uchun Vashingtonga tashrif buyurdi.



Tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida yangi ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

Noyabrdagi muzokaralarning asosiy natijalaridan biri O‘zbekiston — Amerika ishbilarmonlik va investitsiya kengashining tashkil etilishi bo‘ldi. Kengashga O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva va Amerika tomonidan Serjio Gor hamraislik qiladi. Kengashning vazifalari yirik savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish, kelishuvlar ijrosini nazorat qilish, moliyaviy resurslarni jalb etish hamda AT park rezidentlari xizmatini ilgari surish va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Xalqaro kapitalni jalb etishning yana bir imkoniyati O‘zbekiston Milliy investitsiya jamg‘armasi — UzNIF aksiyalarining birlamchi ommaviy joylashtirilishi (IPO) orqali yuzaga keldi. 2026-yil 18-mayda jamg‘armaning global depozitar tilxatlari London fond birjasida savdoga qo‘yildi. 2025-yildan buyon Franklin Templeton kompaniyasi boshqaruvida bo‘lgan jamg‘arma 13 ta davlat korxonasidagi ulushlarni birlashtiradi. O‘zbekiston — AQSH hamkorligi nuqtai nazaridan ushbu tajriba Amerika boshqaruv kompaniyasining davlat aktivlari portfelini isloh qilishdagi ishtiroki va xalqaro aksiyalar bozori orqali kapital jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish bilan ahamiyatlidir.

Hamkorlikning yana bir yo‘nalishi investitsiya aktivlarini boshqarish bo‘yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biri BlackRock bilan aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. 2026-yil yanvar oyida Davosda Prezidentimiz kompaniya direktorlar kengashi a’zosi va katta boshqaruvchi direktori Adebayo Ogunlesi bilan uchrashdi. Muzokaralarda BlackRock kompaniyasining O‘zbekiston korxonalari kapitalida ishtirok etishi, qo‘shma investitsiya mexanizmlarini yaratish va investitsiya muhitini yaxshilash uchun xalqaro tajribani jalb qilish masalalari muhokama qilindi.

2026-yil 7-iyulda Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda tomonlar xususiylashtirish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, moliya bozorini rivojlantirish, yonilg‘i-energetika kompleksi va neft-kimyo sanoatida loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalariga qo‘shma investitsiyalar kiritish masalalarini ko‘rib chiqdi.

AQSH Xalqaro taraqqiyotni moliyalashtirish korporatsiyasi (DFC) bilan hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. DFC investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun xususiy kapitalni jalb qiluvchi AQSH davlat moliya institutidir.

2026-yil fevralda tomonlar qo‘shma investitsiya platformasini tashkil etish to‘g‘risida kelishuv imzoladi. 2026-yil 16-iyunda DFC platformaning ishga tushirilgani e’lon qilindi. U Amerika va xalqaro kapital ishtirokida ustuvor investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirishga mo‘ljallangan.

Platformaning ustuvor yo‘nalishlari energetika, strategik ahamiyatga ega minerallar, infratuzilma, transport va logistika, yuqori texnologik ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda farmatsevtika sohalarini qamrab oladi. Loyihalarni moliyalashtirishga xususiy investorlar, suveren jamg‘armalar va xalqaro moliya institutlarini jalb etish nazarda tutilgan.

Investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirishning amaliy mexanizmi yaratilgani platformaning ahamiyatli tomonlaridan. Bu bo‘lajak uchrashuvda aniq loyihalar, ularning amalga oshirishga tayyorlik darajasi va hamkorlarning ishtirok etish shartlarini muhokama qilish imkonini beradi.

Muhim minerallar va ularni qayta ishlash imkoniyatlari

2024-yil sentyabrda O‘zbekiston va AQSH 2023-yilgi “C5+1” sammiti tashabbuslari doirasida muhim minerallar sohasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzoladi. 2026-yil fevralda esa vazirlar darajasida muhim minerallar va noyob yer elementlarini qazib olish hamda qayta ishlash sohasida ishonchli ta’minotni ta’minlash bo‘yicha hukumatlararo memorandum imzolandi.

O‘zbekiston uchun yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish eng katta iqtisodiy samara berishi mumkin. Buning uchun mineral xomashyoni qazib olish bilan cheklanmasdan, uni boyitish, qayta ishlash va sanoat iste’molchilari talablariga javob beradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Shu bois, qo‘shma loyihalarni baholashda xomashyoni qayta ishlash darajasi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati, mahalliy mutaxassislarni tayyorlash hamda ishlab chiqarish jarayonlarining mamlakat hududida amalga oshiriladigan ulushi muhim mezonlar hisoblanadi.

Savdo dinamikasi va iqtisodiy aloqalar tarkibi

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-2025-yillarda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 4,7 barobar, ya’ni 215 million dollardan 1 milliard dollargacha oshdi. Shu davrda eksport 32,1 million dollardan 291,7 million dollarga, import esa 182,9 million dollardan 712,3 million dollarga yetdi. Ushbu ko‘rsatkichlar ikki tomonlama savdo aloqalari kengaygani, shu bilan birga, AQSH mahsulotlari va xizmatlari importi ustunligicha qolayotganini ko‘rsatadi.

2026-yil yanvar-avgust oylarida o‘zaro savdo hajmi 810,4 million dollarga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 33,4 foiz oshdi. O‘zbekiston eksporti 59,9 foiz o‘sib, 304,5 million dollarni, import esa 21,3 foizga ko‘payib, 506 million dollarni tashkil etdi. AQSHning O‘zbekiston umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1,1 foizdan 1,4 foizga ko‘tarildi.

2026-yilning dastlabki sakkiz oyida eksport tarkibida xizmatlar 224,8 million dollar yoki umumiy eksportning 73,8 foizini tashkil etdi. Mashina va transport uskunalari eksporti 44,8 million dollarga, mineral yoqilg‘i va unga o‘xshash mahsulotlar eksporti esa 17,6 million dollarga yetdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va transport uskunalariga to‘g‘ri kelib, ularning qiymati 272,5 million dollar yoki umumiy importning 53,9 foizini tashkil etdi. Xizmatlar importi 84,1 million dollarga, kimyo sanoati mahsulotlari importi esa 73,5 million dollarga teng bo‘ldi.

2026-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda AQSH kapitali ishtirokida to‘rt yuzga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. Amerika kompaniyalarining faoliyati va qo‘shma loyihalar qayta ishlash va tog‘-kon sanoati, energetika va neft-gaz kimyosi, qishloq xo‘jaligi, qurilish hamda axborot texnologiyalaridan iborat xizmat ko‘rsatish sohalarini qamrab oladi.

2017-2025-yillarda AQSHdan jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 2,9 milliard dollardan oshdi. Yillik ko‘rsatkich 2017-yildagi 8,6 million dollardan 2025-yilda 383,2 million dollarga yetdi.

O‘zbekiston — AQSH iqtisodiy hamkorligining faollashuvi savdo va investitsiya aloqalarining kengayishi, Amerika kapitali ishtirokidagi korxonalar sonining ortishi hamda AQSH kompaniyalarining O‘zbekistonda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishdagi ishtiroki kuchayishi bilan kuzatilmoqda.

Xulosa

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, avvalo, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda o‘zaro savdo hajmini oshirish bilan bog‘liq. Energetika, infratuzilma, qayta ishlash sanoati va yuqori texnologiyali tarmoqlardagi qo‘shma loyihalar alohida ahamiyatga ega.

Mintaqaviy muloqot ikki tomonlama hamkorlikni to‘ldirib, transport, energetika va savdo sohalaridagi masalalarni birgalikda hal etish imkonini beradi. Ushbu yo‘nalishlardagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik biznes uchun qulay sharoitlar yaratish va iqtisodiy aloqalar barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak muzokaralar hamkorlikning keyingi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va erishilgan kelishuvlarni amaliy loyihalarga aylantirish imkonini beradi.

Umuman, “C5+1” formati O‘zbekistonga AQSH bilan ikki tomonlama hamkorlikni mintaqaviy transport va energetika loyihalari bilan bog‘lab, investorlar doirasini kengaytiradi hamda xalqaro ishlab chiqarish zanjirlaridagi ishtirokini kuchaytiradi. Samarqanddagi bo‘lajak uchrashuv ushbu yo‘nalishlarda aniq loyihalarni amalga oshirishga yangi turtki berishi shubhasiz.

Nuqtayi nazar

OLAM AHLI BIZGA HAVASDA



Normurod ISOQOV,
mehnat faxriysi

Bugungi kunda hududlarda islohotlarning samarasi va aholini farovon turmushiga guvoh bo‘lib, yurakdan quvonaman. Shu o‘rinda kechagi kunimiz va yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlarni beixtiyor taqqoslayman. Uzoq yillar hokimlik tizimida ishlaganman. Jumladan, 1998-yildan 2010-yilgacha Qiziltepa tumani hokimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritdim. O‘shanda hududda eng katta muammolardan biri ichimlik suv bo‘lgan. Lekin bu masalani hal qilish uchun imkoniyat yo‘q edi.

O‘sha davrda hokimlik tizimidagi mutasaddilarning vazifasi aholini pensiya bilan ta’minlash, budjetning birinchi darajali to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirish, ish haqlarini ta’minlash kabilar edi. Masalan, “kassa rejasi”, “naqd pul” degan juda katta muammolarga duch kelganmiz. Ayrim hokimlar va o‘rinbosarlari birinchi darajali to‘lovlarni amalga oshirish uchun ba’zan boshqa tumanlardan naqd pul topib kelishga majbur edi.

Qiziltepa sanoatlashgan, tadbirkorlik rivojlangan tuman bo‘lgani uchun belgilangan rejalarni bajarardik. Lekin Navoiy sanoatlashgan viloyat degan vajlar bilan belgilangan rejalar qayta ko‘rib chiqilardi. O‘zgartirishlar kiritilgach, topilgan mablag‘ni turli yo‘nalishlarga sarflashga majbur bo‘lardik.

Hozir xalq bilan muloqot qilina boshlandi. Ijtimoiy himoya tizimi joriy etildi. Avval ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak edi. Og‘ir ahvolda bo‘lgan, yuqori darajadagi jarrohlik amaliyotiga muhtoj insonlar ham bor edi. Hokimlikda esa buning uchun yetarli mablag‘ bo‘lmagan. Shunday paytlarda biz tadbirkorlarga murojaat qilardik. Ular imkoniyatidan kelib chiqib, ana shunday oilalarga ko‘mak berardi. Hozir ijtimoiy himoya tizimi bu kabi insonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlamoqda.

Keyinchalik qariyb o‘n yil mahalla tizimida rahbar bo‘lib ishladim. O‘sha vaqtlarda ayrim mahalla binolari uylarning yerto‘lasida yoki biror binoning bir xonasida joylashgandi. Hatto birovning uyidagi xonalardan ham mahalla idorasi sifatida foydalanilgan joylar bor edi. To‘rt, ba’zan besh-olti xodim bitta xonada ishlardi. O‘shanda mahallada oddiy kompyuter jamlanmasi ham yo‘q edi. Hozir “mahalla yettiligi” uchun yaratilgan sharoitlarni ko‘rib, ko‘z quvnaydi. Yangi binolar, shinam xonalarda barcha texnik imkoniyat bor.

Ilgari asosiy talabimiz “Ko‘chamizga hech bo‘lmaganda shag‘al yotqizib bering”, degan mazmunda bo‘lardi. Qishloqlarga borsak, chang ko‘chani uchratmaysiz. Asfalt yoki shag‘al yotqizilgan. Ana shu shag‘al ko‘chalar ham asta-sekin asfalt qilinmoqda. Ya’ni aholining talabi va ehtiyoji o‘zgardi. Bugun hokimiyatda mablag‘, imkoniyat bor. Mahallalar ro‘yxatlari shakllantirilib, og‘ir toifadagilariga alohida-alohida mablag‘ ajratilmoqda. Ichimlik suv masalasi ham hozir 85 foiz atrofida hal etildi. Aholining asosiy qismi toza ichimlik suv bilan ta’minlangan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ahvoli ham og‘ir edi. O‘zim o‘qigan Qiziltepa tumanidagi 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘sha paytda sharoitlar yetarli emasdi. Hozir maktablarimizning qiyofasiga qarang. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’minotiga, qurilishiga qarang. Har qishloqda maktabgacha ta’lim masalasi bo‘yicha imkoniyatlar yaratilib, qamrov kengaymoqda. Oldin ota-onalar iltimos qilib, turli yo‘llar bilan farzandini bog‘chaga joylashtirishga harakat qilardi. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkilotlar ko‘payib, sohada raqobat paydo bo‘ldi.

Tadbirkorlarimiz ijtimoiy mas’uliyatini his etib, yangi maktablar qurib, ularni ta’mirlashda ishtirok etmoqda. Hokim qishloqqa borib, maktab muammosini investitsiya dasturiga kiritib, masalaga yechim bera olyapti.

Bugun tadbirkorlik qilish istagida bo‘lganlarga barcha imkoniyat yaratib berilmoqda. Avvallari tadbirkor degani go‘yoki noqonuniy yo‘l bilan daromad topadigan, odamlarning haqini yeydigan insondek tushunilardi. Hozir tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkor faoliyatiga noqonuniy aralashishga yo‘l qo‘yilmayapti. Xato qilganlarni kechirish, imkon berish yo‘li tanlanmoqda. Natijada dunyo ahli O‘zbekistonga qiziqish bilan qarayapti. Investorlarning o‘zi mamlakatimizga kirib kelmoqda.

Bugun shaharu qishloqlarni kezib, to‘g‘risi, havas qilaman. Yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lidagi ishlarni ko‘rib, xursand bo‘laman. Mahallarimizda ravon va yorug‘ yo‘laklarda odamlar kechqurun sayr qilib, sport bilan shug‘ullanmoqda.

Ha, islohotlar, o‘zgarishlar kirib bormagan tizim yoki tarmoq qolmadi. Shular haqida o‘ylab, avval kim edik, bugun kim bo‘ldik degan savolga javob izlayman. Bunga javoban ko‘z oldimga xalqaro maydonda vatan bayrog‘ini baland ko‘targan yoshlar keladi. Ular barcha sohada, ayniqsa, ilm-fanda ilg‘orlar safida. Tadbirkorlarimiz ishlab chiqargan mahsulotlar dunyo bozorida o‘z xaridoriga ega bo‘lib boryapti. Mahallalar tinch, obod bo‘lib, oilalarga baraka kirmoqda.

Shunday xayrli ishlarni ko‘rib, faxriy bo‘lsam-da, yangidan kuchga to‘laman. Boshlangan katta yangilanishlarga kamarbasta bo‘lib, oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shgim keladi.

2026-yil 17-oktabr, 215-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA YANGI O‘ZBEKISTON SIYOSATI DUNYO E’TIROFIDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev keyingi o‘n yilda mamlakatimizda inson qadri va huquqlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan izchil tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining mustaqilligini oshirish, vakolatlarini kengaytirish va davlat siyosatidagi munosib o‘rnini ta’minlash, shuningdek, xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Joriy yil 31-oktabrda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil topganiga roppa-rosa 30 yil to‘ladi. Milliy markaz direktori, akademik Akmal SAIDOV bilan suhbatimiz ayni shu mavzuga bag‘ishlandi.



— Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, himoya qilish va ilgari surish borasida davlat siyosatining yagona tizimini shakllantirishga ko‘maklashuvchi milliy institut sifatida tashkil topgan, — dedi A.Saidov. — Milliy markaz BMT Inson huquqlari bo‘yicha ikkinchi jahon konferensiyasi (Vena, 1993-yil) tavsiyalari hamda Parij tamoyillariga muvofiq tashkil etilgan.

1997-yil 5-mart kuni Milliy markazning tantanali ochilishi bo‘ldi. Shu kundan boshlab u milliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, demokratlashtirish hamda inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

O‘tgan davr mobaynida Milliy markaz o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlari doirasida inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga izchil ko‘maklashib kelmoqda. Bunda, xususan, O‘zbekistonning xalqaro shartnomalar bo‘yicha davriy ma’ruzalarini tayyorlash, inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan milliy monitoring olib borish, qonunchilikni takomillashtirishda ishtirok etish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, ilmiy-ma’rifiy va nashriyot faoliyatini yuritish masalalari alohida ahamiyatga ega.

— Milliy markazning 30 yillik faoliyati solnomasiga muxtasar nazar solish mumkinmi?

— Istiqlol yillarida Milliy markaz mamlakatning inson huquqlari va erkinliklari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini bajarish borasidagi strategik yo‘nalishlarni belgilovchi yagona davlat institutiga aylandi. Binobarin, bunday vazifa boshqa hech qanday davlat organiga yuklanmagan edi.

Milliy markazning boshqa milliy institutlardan farqi shundaki, uning faoliyati nafaqat mamlakat ichidagi, balki O‘zbekistondan tashqaridagi aloqalarni ham qamrab oladi: u hukumatga xalqaro majburiyatlarni bajarishda ko‘maklashadi, xalqaro institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi va rivojlantiradi, xalqaro hamjamiyatni mamlakatdagi inson huquqlari holati haqida xabardor qiladi.

Eng muhimi, Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” davlat dasturi Milliy markaz faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi.

O‘ttiz yillik davr mobaynida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi inson huquqlari sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi yetakchi milliy institut sifatida shakllandi va mustahkamlandi. Ushbu davrda Milliy markaz faoliyatining qator muhim natijalarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi muhim natija — institutsional mustahkamlanish. Milliy markaz 2008, 2013 va 2018-yillardagi davlat qarorlari orqali moddiy-texnik, kadrlar va resurs salohiyati jihatidan izchil barqarorlashib bordi, 2023-yilda esa uning maqomi jahonda ilk bor konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi.

Xususan, bu boradagi eng muhim qonunchilik yangiliklaridan biri Prezidentimizning 2018-yil 10-dekabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bo‘ldi. Bu qaror Milliy markazning huquqiy asosini mustahkamlash hamda xalqaro majburiyatlarni bajarishdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

O‘z navbatida, davlatimiz rahbarining 2020-yil 22-iyundagi tegishli farmoni bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi va Milliy strategiyani amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, shuningdek, BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini ko‘rib chiqish yuzasidan davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Ikkinchi muhim natija — xalqaro majburiyatlar ijrosi. Milliy markaz BMTning asosiy inson huquqlari shartnomalari bo‘yicha o‘nlab davriy ma’ruzalarni tayyorlash, shuningdek, nogironlar huquqlari, ayollar va bolalar huquqlari konvensiyalari, Iqtisodiy-ijtimoiy-madaniy huquqlar pakti kabi yo‘nalishlarda milliy harakatlar rejalari ijrosini monitoring qilishda faol ishtirok etdi.

Milliy markaz inson huquqlari sohasida O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga muvofiq BMTning ustav va shartnomaviy organlariga milliy ma’ruzalarni tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha asosiy ijrochi hisoblanadi. Bugungi kunga qadar 52 ta ma’ruza taqdim etilgan.

Uchinchi muhim natija — qonunchilikni takomillashtirish. Milliy markaz 1996-2025-yillar mobaynida 300 dan ortiq qonun loyihasining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiqligini ekspertiza qildi. Qonunchilikni xalqaro shartnomalar bilan takomillashtirish bo‘yicha 400 ga yaqin taklif berib, 60 ta qonun hujjatining qabul qilinishida tashabbus ko‘rsatdi. Davlat organlari so‘rovlari bo‘yicha mingdan ortiq tahliliy material va ma’lumotnoma tayyorladi.

Milliy markaz tomonidan bevosita ham normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi. Jumladan, 2023-2024-yillarda ombudsman, bolalar ombudsmani, zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi va Tadbirkorlik kodeksi kabi muhim qonunlar qabul qilinishida ishtirok etdi.

To‘rtinchi muhim natija — xalqaro mavqening yuksalishi. O‘zbekiston o‘z tarixida birinchi marta 2024-2025-yillarda BMTning ECOSOC, Inson huquqlari qo‘mitasi va XMT Ma’muriy kengashi kabi nufuzli tuzilmalarga saylandi. Bularning barchasi, shubhasiz, Milliy markaz va mamlakatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlik natijalarining amaliy ko‘rsatkichi bo‘ldi.

Xususan, 2021-yilda O‘zbekiston tarixida birinchi marta BMT Inson huquqlari kengashi a’zoligiga saylandi, Prezidentimiz ushbu kengashning 46-sessiyasida ayollar rolini oshirish, yoshlar huquqlari konvensiyasi, qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizm kabi bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Xalqaro maydonda O‘zbekiston BMT Inson huquqlari kengashi a’zosi sifatida faol ishtirok etdi. Buni 2023-yil 13-15-mart kunlari BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Folker Tyurk mamlakatimizga rasmiy tashrif buyurib, bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish borasidagi yutuqlarni yuqori baholagani ham yaqqol tasdiqlaydi.

O‘z navbatida, 2024-yilga kelib xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzi keskin oshdi: iyunda tarixda birinchi marta BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) a’zoligiga 185 davlat ovozi bilan saylandi. 7-iyunda Jenevada Xalqaro mehnat konferensiyasining 112-sessiyasida O‘zbekiston Yevropa hududidan eng ko‘p ovoz to‘plab, XMT Ma’muriy kengashi a’zoligiga, 29-mayda esa Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 40-sessiyasida O‘zbekiston vakili birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasi a’zoligiga saylandi.

Beshinchi muhim natija — aholi huquqiy madaniyatining yuksalishi. O‘tgan davrda Milliy markaz “Inson huquqlari uyi”, “Demokratlashtirish va inson huquqlari” hamda “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” jurnallari, shuningdek, davlat organlari xodimlari uchun muntazam malaka oshirish dasturlari orqali jamiyatda inson huquqlari madaniyatini qaror toptirishga munosib hissa qo‘shdi.

Bu borada 3 ta muhim raqamga e’tiboringizni qaratish bilan kifoyalanaman: 1996-yildan 2026-yilning birinchi yarmigacha, ya’ni 30 yil ichida Milliy markaz tomonidan:

— xalqaro darajadagi va respublika miqyosidagi 4 mingdan ortiq konferensiya, seminar, davra suhbati, monitoring tashrifi, o‘quv kursi va turli uchrashuv o‘tkazilgan;

— 40 dan ortiq tashkilot va muassasalar bilan hamkorlik memorandumi imzolanib, ularda belgilangan dolzarb vazifalar izchillik bilan bajarilgan;


— jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan 37 ming 700 ta murojaat ko‘rib chiqilgan.

— Yangi O‘zbekiston sharoitida Milliy markaz qay darajada yangilandi, qanday tashabbuslar hisobiga qanaqa natijalarga erishildi?


— Yangi O‘zbekiston islohotlari davrida Milliy markazning yangilanishi, dastavval, uning institutsional maqomi va mustaqilligi yanada oshirilishi misolida yaqqol namoyon bo‘ldi. Prezidentimizning 2018-yil 10-dekabrdagi qaroriga muvofiq, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazning maqomi tubdan yuksaldi.

Qarorda Milliy markaz o‘z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlaridan, shuningdek, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshirishi qat’iy belgilab qo‘yildi. Davlatimiz rahbari Milliy markaz direktori maqomini vazir darajasiga tenglashtirdi va u bevosita Prezident tomonidan tayinlanishi tartibini joriy etdi.

Bugungi kunda Milliy markaz har yili mamlakatdagi inson huquqlari va xalqaro majburiyatlarning bajarilishi holati to‘g‘risida bevosita O‘zbekiston Prezidentiga va Oliy Majlis palatalariga axborot taqdim etib bormoqda.







Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Milliy markaz tarkibida yangi tuzilma — Inson huquqlari bo‘yicha axborot-kutubxona markazi — “Inson huquqlari uyi” tashkil etildi. Ushbu markaz oldiga inson huquqlari sohasidagi islohotlar xronologiyasini yuritish hamda tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalarni fuqarolar va tadqiqotchilar uchun keng ochib berish vazifasi qo‘yilgan.

Prezidentimiz o‘z chiqishlarida O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarishda Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazning muvofiqlashtiruvchilik rolini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlab keladi. Aynan mamlakatimiz yetakchisi tashabbusi va tegishli farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya doirasida Milliy markaz zimmasiga qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va monitoring tizimini takomillashtirish kabi strategik vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ular muvaffaqiyatli bajarildi.

Birgina misol: davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Milliy markaz tarkibida yangi tuzilma — Inson huquqlari bo‘yicha axborot-kutubxona markazi — “Inson huquqlari uyi” tashkil etildi. Ushbu markaz oldiga inson huquqlari sohasidagi islohotlar xronologiyasini yuritish hamda tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalarni fuqarolar va tadqiqotchilar uchun keng ochib berish vazifasi qo‘yilgan.

E’tibor bering: Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumining tashabbuskori ham shaxsan Prezidentimizdir. Ayni shu muhim tashabbus asosida yangi O‘zbekistonda inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan Samarqand forumini o‘tkazish izchil, xayrli va samarador an’anaga aylangani har qancha tahsinga sazovor.

Joriy yilda Inson huquqlari bo‘yicha beshinchi Samarqand forumi o‘tkazildi. An’anaviy tarzda har ikki yilda o‘tkazib kelinayotgan ushbu xalqaro anjuman qisqa vaqt ichida inson huquqlarining turli sohalariga taalluqli dolzarb masalalarni muhokama etish va samarador yechimlar topish borasida dunyo miqyosida kam uchraydigan noyob, qulay va o‘ziga xos muloqot maydoniga aylandi.

— Beshinchi Samarqand forumining yubiley majlisida ham Milliy markaz faoliyati haqida so‘z yuritildi, shunday emasmi?

— Forumning yubiley majlisi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yilligiga bag‘ishlandi. Ishtirokchilar “Xalqaro majburiyatlardan samarali amalga oshirish sari: inson huquqlari sohasida milliy implementatsiya mexanizmlarining roli” mavzusi doirasida batafsil fikr almashdi.

Xususan, YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori Maria Telalian o‘z murojaatida inson huquqlarini samarali himoya qilish hamda xalqaro majburiyatlarni amaliyotga tatbiq etishda kuchli va mustaqil milliy inson huquqlari institutlarining o‘rni muhimligini ta’kidladi. Bunda jamiyatning davlat va inson huquqlari institutlariga ishonchiga alohida e’tibor qaratdi.

YXHT vakili, shuningdek, mustaqil milliy inson huquqlari institutlari inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar bilan ularning milliy darajadagi ijrosi o‘rtasida, shuningdek, fuqarolar bilan davlat institutlari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini o‘tay olishini qayd etdi.

Milliy inson huquqlari institutlari global alyansi raisi, Marokash Inson huquqlari milliy kengashi prezidenti Amina Buayach xalqaro majburiyatlarni amalga oshirishda inson huquqlari bo‘yicha milliy muassasalarning muhim rolini hamda ularning mustaqilligi, fuqarolik jamiyati va huquq egalarining ishtiroki zarurligini ta’kidladi. U inson huquqlari bo‘yicha milliy muassasalar samaradorligini, avvalo, insonlar hayotidagi real o‘zgarishlar bo‘yicha baholashni taklif etdi.

Turkiya Inson huquqlari va tenglik instituti prezidenti Vasip Shahin mavjud xalqaro standartlarni samarali amalga oshirish va ularni milliy hamda mahalliy darajada inson huquqlarining haqiqiy kafolatlariga aylantirish zarurligini qayd etdi. Kamsitishga qarshi kurashish, qiynoqlarning oldini olish va ozodlikdan mahrum etish joylari monitoringini olib borishda inson huquqlari bo‘yicha milliy muassasalarning roliga alohida e’tibor qaratdi.

Rossiya Federatsiyasida Inson huquqlari bo‘yicha vakil Yana Lantratova inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi tajribasini taqdim etar ekan, inson huquqlarining universal xususiyatini xalqlar tarixi va an’analarini hisobga olgan holda uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidladi. Bolali oilalar, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilish, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha milliy muassasalar o‘rtasida tajriba almashish muhimligini qayd etdi.

O‘z navbatida, “UPR Info” xalqaro nohukumat tashkiloti ijroiya kengashi raisi Janni Magazzeni Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining xalqaro mexanizmlar tavsiyalarini bajarishga doir integratsiyalashgan yondashuvni rivojlantirishga qo‘shgan hissasini e’tirof etdi.

Shunday qilib, beshinchi Samarqand forumi ishtirokchilari qayd etganidek, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi o‘tgan o‘ttiz yil mobaynida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni ilgari surish, O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlari bajarilishini ta’minlash, BMTning inson huquqlari bo‘yicha tizimlari bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda inson huquqlari sohasidagi ta’lim, tadqiqot va institutsional rivojlanish masalalarida yetakchi o‘rin tutib kelmoqda.

Milliy markazning ushbu yubiley sanasi misolida, forum ishtirokchilari fikricha, milliy institutlar hamda ijro etish, hisobot berish va monitoring bo‘yicha milliy mexanizmlarning xalqaro majburiyatlarni amaliyotga samarali tatbiq etishdagi o‘rni va rolini baholash uchun keng imkoniyat tug‘ildi.

— Konstitutsiyaviy islohotlar va Milliy markaz faoliyati mavzusiga ham to‘xtalsangiz.

— Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi asnosida Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha umumxalq muhokamasi boshlandi. Milliy markaz loyihaning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro shartnomalarga muvofiqligi yuzasidan rasmiy xulosa taqdim etdi. Shuningdek, BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, UNICEF, UNESCO va EXHTning takliflarini muvofiqlashtirdi.

O‘zbekiston konstitutsiyaviy taraqqiyotida 2023-yil 30-aprel burilish nuqtasi bo‘ldi, binobarin, ayni shu sanada o‘tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiya 65 foiz yangilanib, inson huquqlariga oid normalar soni uch baravar ko‘paydi va 50 dan ortiq moddani tashkil etdi.

Ayollar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishga hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga konstitutsiyaviy maqom berildi. Konstitutsiyamizda Miranda qoidalari, “Habeas corpus” va “pro bono” (bepul yuridik yordam) institutlari o‘z aksini topdi.

Bosh qonunda “o‘lim jazosi taqiqlanadi”, degan norma belgilanib, u Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning Ikkinchi fakultativ protokoliga to‘liq muvofiqlashtirilgani ulkan ahamiyatga molik voqea bo‘ldi.

Shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar to‘g‘risida alohida modda kiritildi, natijada O‘zbekiston dunyoda birinchilardan bo‘lib bu institutlarning maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi.

Ayni vaqtda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosi doirasida Milliy markaz tomonidan “Inson huquqlari — 2030” strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi va u o‘rnatilgan tartibda muhokamalardan o‘tkazilmoqda. Bu hujjat inson huquqlarini ta’minlash, himoya qilish va ilgari surish sohasidagi ustuvor maqsad va vazifalarni o‘rta hamda uzoq muddatli istiqbolda belgilab beruvchi strategik asos vazifasini o‘taydi.

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi jahon ta’lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida respublika miqyosida profilaktika inspektorlari uchun seminar-treninglar o‘tkazildi. Ushbu treninglar joriy yilning o‘tgan davrida barcha viloyatlarda “Inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik” o‘quv moduli asosida tashkil etilib, 5200 dan ortiq tinglovchini qamrab oldi.

Muxtasar aytganda, keyingi o‘n yilda yangi O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi siyosati butun jahonda e’tirof etilayotgani bejiz emas. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **“Hech kimning unutishga haqqi yo‘q: qonun talablari va inson huquqlari — biz uchun oliy qadriyat”.**

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Sanjar ESHMURODOV suhbatlashdi.

Mulohaza



Bilimi, kasbiy mahorati va ijtimoiy faolligi bilan bir qatorda, xulqi, odobi, muomala madaniyati va odamlarga munosabati inson kamolotining muhim mezonlaridan. Zero, qanday shaxs ekanini odamning nafaqat aytgan so‘zlari, balki kundalik hayotdagi xatti-harakatlari, o‘zini tutishi, kattaga hurmati, kichikka izzati, ota-onasiga munosabati va atrofdagilar bilan muomalasi namoyon etadi.

TARBIYA – UZLUKSIZ JARAYON

Bu oila, ta’lim muassasasi, mahalla va keng jamoatchilik ishi



Xolboy IBRAIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan chuqur ma’noli maqol bor. Bola kattalarning nasihatidan ko‘ra ko‘proq ularning xatti-harakatini kuzatadi va o‘zlashtiradi. Shu ma’noda, ota-onaning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasidagi eng kuchli vositalardan. Go‘zal xulq bir kunda shakllanmaydi. U oila, maktab, mahalla, do‘stlar, ustozlar va jamiyat ta’sirida asta-sekin qaror topadi. Shuning uchun tarbiya jarayoniga faqat ta’lim muassasasining vazifasi sifatida qarash to‘g‘ri emas. Tarbiya — butun jamiyatning ma’naviy mas’uliyati.

Yurtimizda odob-axloq inson kamolotining asosiy belgilaridan biri sifatida azaldan qadrlab kelingan. Kattaga salom berish, keksalarni hurmat qilish, kichiklarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olish, ota-onani e’zozlash, qo‘ni-qo‘shnilar bilan ahil yashash kabi fazilatlar avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy tarbiya an’analaridir.

Milliy tarbiyaning kuchli jihati shundaki, u insonni muayyan qoidalarga bo‘ysundirish emas, balki ezgulikni ichki ehtiyojga aylantirishga xizmat qiladi. Ya’ni inson yaxshilikni jazodan qo‘rqqani uchun emas, balki uning to‘g‘ri va insoniy fazilat ekanini anglagani uchun qilishi kerak.

Salom berishi, kattalarga yo‘l ochishi, kichiklarga mehribon bo‘lishi, dasturxonda o‘zini tuta bilishi kabi xatti-harakatlar aslida bolaning ma’naviy dunyosi shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bois, tarbiyada mayda narsaning o‘zi yo‘q. Har bir odat keyinchalik shaxsning xulq-atvoriga aylanishi mumkin.

Go‘zal xulqning birinchi maktabi

Xalqimizda “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan maqol bor. Ushbu hikmat farzand tarbiyasida jamoatchilikning ham mas’uliyati katta ekanini anglatadi. Bola o‘zini qanday tutishni, avvalo, oilada o‘rganadi. Ota-onaning bir-biriga munosabati, farzand bilan muloqoti, uydagi muhit, kattalarning mehnatga, ilmga, odamlarga munosabati bola ongida chuqur iz qoldiradi. Agar oilada o‘zaro hurmat va mehr ustuvor bo‘lsa, farzand ham mehribonlik va hurmatni o‘rganadi. Agar ota-ona o‘z xatti-harakati bilan halollik, mehnatsevarlik va mas’uliyat namunasini ko‘rsatsa, bolada ushbu fazilatlarning shakllanishi osonlashadi. Aksincha, kattalarning so‘zi bilan amali o‘rtasida tafovut bo‘lsa, bolada ikkilanish paydo bo‘ladi. Shuning uchun farzandga “yaxshi bo‘l” deb aytishning o‘zi yetarli emas. Avvalo, kattalarning o‘zi yaxshi xulq namunasini ko‘rsata olishi kerak.

Pedagogika fanida androgogika atamasi mavjud bo‘lib, u katta yoshdagi insonning kasbiy, ma’naviy, oilaviy, ijtimoiy, fuqarolik va sog‘lom hayot ko‘nikmalarini rivojlantirish, keksalarning faol, munosib va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash, ularning avlodlar tarbiyasidagi boy tajribasini zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy soha. Shu asosda keksalar bilan ishlashda uchta tamoyil ustuvor bo‘lishi kerak: qadr-qimmat — keksa inson tajriba va qadriyatlar sohibi. Faollik — keksalarning ijtimoiy ishtiroki, ko‘ngilliligi va ijodiy faolligi rag‘batlantiriladi. Avlodlar uzviyligi — keksa avlodning milliy tarbiyadagi o‘rni ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi. Shu ma’noda, androgogika va faol keksalik bo‘yicha milliy konsepsiya qabul qilish, bobo-buvilarning nevaralar tarbiyasidagi rolini zamonaviy metodika bilan qo‘llab-quvvatlash, keksa ota-ona va voyaga yetgan farzandlar o‘rtasidagi muloqot madaniyati bo‘yicha mahalla dasturlarini joriy qilish, hududlarda faol keksalik markazlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq, nazarimizda.

O‘zbek oilalarida ota-onaga hurmat alohida qadriyat sifatida shakllangan. Keksalarning duosini olish, holidan xabarlashish, xizmatini qilish, maslahatini tinglash kabi an’analar yosh avlod ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Biroq hurmatni faqat tashqi harakatlar bilan cheklab qo‘ymaslik lozim. Haqiqiy hurmat insonning ichki munosabatida ham namoyon bo‘ladi. Ota-onaga e’tiborli bo‘lish, ularning mehnatini qadrlash, qarilik davrida g‘amxo‘rlik qilish farzandlikning muhim ko‘rinishlaridir.

Bugungi tezkor axborot asrida avlodlar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash yanada muhim. Telefon, internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o‘rtasidagi masofani qisqartirgan bo‘lsa-da, ba’zan oila a’zolarining bir-biri bilan bevosita muloqotiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun oilada jonli suhbat, birgalikda vaqt o‘tkazish, farzandning fikrini tinglash madaniyatini shakllantirish zarur.

Ta’lim muassasasi bolaga bilim berish bilan birga shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda ustozning shaxsiy namunasi beqiyos ahamiyatga ega. Murabbiyning muomalasi, kiyinishi, nutqi, adolatli munosabati, o‘quvchiga e’tibori va hatto oddiy salomlashishi ham tarbiyaviy ta’sirga ega. O‘quvchi ustozidan nafaqat fanni, balki hayot saboqlarini ham o‘rganadi. Shu ma’noda, haqiqiy pedagog faqat bilim beruvchi mutaxassis emas, balki shaxs kamolotining yo‘l ko‘rsatuvchisidir.

Ustozning bir og‘iz yaxshi so‘zi o‘quvchi qalbida yillar davomida saqlanishi mumkin. Shuningdek, e’tiborsiz aytilgan so‘z ham bolaning ruhiyatiga ta’sir qilishi ehtimoli yuqori. Demak, pedagogik faoliyatda har bir so‘z, har bir munosabat va har bir harakat mas’uliyat bilan tanlanishi lozim.

O‘zbek jamiyatida mahalla azaldan nafaqat hududiy birlik, balki o‘ziga xos tarbiya maktabi vazifasini ham bajarib kelgan. Qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi munosabat, hasharlar, to‘y va marosimlardagi hamjihatlik, ehtiyojmandlarga yordam berish kabi an’analar yoshlarda jamoaviylik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

“Qo‘shning tinch — sen tinch” degan hikmat ham bejiz aytilmagan. Insonning ma’naviy xotirjamligi ko‘p jihatdan uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitga bog‘liq. Dunyoda shunday mamlakatlar borki, yon qo‘shnilar bir-birini tanimasligi, salomlashmasligi, yaxshi-yomon kunida ko‘maklashmasligi mumkin. Bu holat jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning susayishiga olib keladi. Milliy muhitda esa qo‘shnining holidan xabar olish, bemor bo‘lsa, ziyorat qilish, xursandligiga sherik bo‘lish, qiyinchilikka uchrasa, ko‘maklashish kabi qadriyatlar mavjud. Ana shu an’analarni yosh avlodga yetkazish tarbiyaning muhim vazifalaridan.

Bugungi yoshlar katta axborot oqimi muhitida voyaga yetmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar va turli madaniy ta’sirlar yoshlarning dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda tarbiyaning vazifasi yoshlarni axborotdan butunlay ajratish emas, balki ularda axborotni tanlash, baholash va undan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Yoshlarning internetda nimani ko‘rayotgani, kimni o‘ziga namuna deb bilayotgani, qanday muloqot qilayotgani va o‘z fikrini qay tarzda ifoda etayotganiga e’tibor berish muhim. Raqamli muloqotda ham go‘zal xulq me’yorlari saqlanishi lozim. Boshqalarni haqorat qilmaslik, asossiz ayb-lovlar yozmaslik, shaxsiy ma’lumotlarni ehtiyot qilish, o‘zga fikrga hurmat bilan munosabatda bo‘lish — bugungi davrda tarbiyaning yangi ko‘rinishlari.

Fazilatlar bir-biridan alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda shaxs ma’naviy qiyofasini shakllantiradi. Tarbiyada eng kuchli vositalardan biri shaxsiy namunadir. Bola kattalarning aytganidan ko‘ra, qilgan ishiga ko‘proq ishonadi. Shuning uchun ota-ona, ustoz va jamoatchilik vakillari yoshlar uchun o‘z xatti-harakatlari bilan namuna bo‘lishi zarur. Kitob o‘qishni targ‘ib qilayotgan ota-onaning o‘zi kitob mutolaa qilsa, mehnatsevarlik haqida gapirayotgan ustozning o‘zi mehnatga mas’uliyat bilan yondashsa, halollikni targ‘ib qiluvchi inson o‘z hayotida halollik tamoyiliga amal qilsa, tarbiya ta’sirchan bo‘ladi. Bu jihatdan tarbiyani gapirish emas, balki ko‘rsatish samaraliroqdir.

Insonning haqiqiy boyligi mol-mulki yoki mansabi bilan emas, avvalo, go‘zal xulqi, ezgu ishlari va odamlar orasida qoldirgan yaxshi nomi bilan belgilanadi. Tarbiya esa ana shu fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan uzluksiz jarayon. Oila — uning birinchi maskani, maktab — tizimli davomi, mahalla — ijtimoiy muhiti, ustoz esa ma’naviy yo‘lboshchisidir. Go‘zal xulqni tarbiyalash ota-ona, ustoz, mahalla va butun jamiyatning mushtarak mas’uliyatidir. Bugun biz yosh avlodga qanday xulq, qadriyat va munosabatni singdirsak, ertaga jamiyatimizda shunday insonlar kamol topadi. Demak, tarbiyaga qaratilgan e’tibor kelajakka yo‘naltirilgan eng muhim sarmoya.



Aks sado

TOG‘LAR YONIMIZGA KELA OLSAYDI...

Boborahim Mashrabning o‘tli, yurak-bag‘ri o‘rtanib bitgan satrlari necha yoshimdan xotiramga yozila boshlaganini bilmayman. Dadam arab imlosida bitilgan katta, chiroyli kitobni o‘qirdi, biz esa har kuni oqshomda uni eshitib to‘ymasdik. Xalq orasida “Shoh Mashrab” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu shoir g‘azallaridagi “riyozat, malak, zohir, anisim, munisim, dilbandi jonim...” kabi so‘z va iboralar ma’nosini tushunmasdim, ammo ular o‘z-o‘zidan dilimga yozilaverardi, ichimda takrorlayverardim.



Muhtarama ULUG‘OVA,
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi

...Har oqshomda dadamning biqinida o‘qiyotgan kitoblariga tikilib o‘tirardim. Necha kunlar davomida nafasini ham ichga yutib, dadamning o‘qishini tinglab kelgan ammalarim, onam, opalarim va buvichamning ko‘zlaridan yosh oqa boshladi, ularning yuzlariga, ko‘zlariga to‘lgan g‘amning sababini anglamasdim. Dadamning-da ovozlari o‘zgardi va to‘rt qator she’rni takror-takror o‘qidi:

Ayo charx, etting ortiq javri bunyod,
Ko‘zum yoshlig‘, dilimda qoldi faryod.
Hayotim lolazoridan ayurding,
Yoqib jonim, kulim ko‘kka sovurding...

O‘shanda qulog‘imga kirib, yodimga o‘rnashib qolgan bu satrlar “O‘tkan kunlar”dagi Otabek qalbidan Kumushning qabrtoshiga ko‘chgan iztirob-alamlarning so‘zlardagi to‘lqinlari ekan.

Katta akamning Fuzuliy g‘azallarini xirgoyi qilishini eshitishni ham juda yaxshi ko‘rardim:

Ko‘zi yoshlularing holin
na bilsin mardumi g‘ofil,
Kavokib sayrini shab
to sahar bedor o‘landan so‘r.

Bu satrlar ma’nosini anglashga hali juda yoshlik qilar edim, biroq oydin kechalarda osmonda jimirlab, go‘yo sirli shivirlab o‘ylarimni yoritgan va boyitgan yulduzlar kabi bu chiroyli so‘zlar ham bola qalbimni maftun etgandi.

Onamning singlimga, jiyanlarimga aytgan allalaridagi “andalib”, “toli chavgonim”, “oydin”, “cho‘lponim”, “parishon”, “o‘qitib mullo qilay” kabi so‘zlar munis ohangga vobasta bo‘lib, ajib yangrar edi, onajonimning ovozi shu so‘zlardan yanada sehrlanib ketgandek bo‘lardi. Qalbimga so‘z sehri, jilosi va unga mehru muhabbat shu tariqa kirib kelgan bo‘lsa kerak.

Keyin maktabga bordim va ustozlar saboqlaridan, eng avvalo, so‘z oldidagi mas’uliyatni his etdim.

Yoshi ulug‘larning yuqoridagi kabi xotiralari ayrimlar uchun go‘yo bugungi shiddatkor, globallashgan davrning qadamu nafaslariga yopishmaydigan holatday tuyuladi: “Davra olib kitob o‘qib o‘tirishga, she’rxonlikka, bolasiga aytish uchun alla yodlashga kimning vaqti bor?! Qaysi asrda yashayapti bu odam?”. Ayni shu yo‘sindagi fikrni tasdiqlovchilar ham, bunga zamin yaratuvchi omillar ham atrofimizda oz emas, biroq...

Olimlar dunyoda mavjud 5000 ga yaqin tilning qariyb qirq foizi “o‘lib”, yana minglab tillar tanazzulning turli bosqichlariga kelib qolganini e’tirof etar ekan, buning asosiy sabablarini bunday izohlaydi: avvalo, bir til boshqa bir tilning kuchli bosimi ostida yo‘qolib boradi — bu fikr tarixda va hozirgi kunda ham ko‘p bor o‘z isbotini topgan. Yana bir jiddiy sabab shuki, tilning saqlanib qolishi unda qancha odam gaplashishiga emas, balki qanday gaplashishiga bog‘liq. Chunki dunyoda 200 nafar so‘zlovchisi bilan “yashab” kelayotgan va aksincha, minglab so‘zlovchisi bo‘lsa-da, yo‘qolish xavfi ostida turgan tillar ko‘p.

Til tanazzulining asosiy sabablari sanalgan yuqoridagi ikki holatning birinchisini xalqimiz qariyb bir asr davomida boshdan kechirdi. XIX asrning to‘rtinchi choragidan to XX asrning deyarli oxirigacha millatimiz go‘yo taraqqiyotga, madaniy hayotga erishishning va chuqur bilimlarga ega bo‘lishning vositasi sifatida hukmron mustamlaka tuzum yetakchilari tilida gapirish, o‘qish hamda yozishga majburlandi. Oqibatda savodxonligimizdan tortib, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-maishiy hayotimizgacha bo‘lgan barcha sohalarda ona tilimiz qanday ahvolga tushib qoldi. Bu siyosatga tobe bo‘lgan, uning yo‘rig‘iga yurganlarning fikrlash va yashash tarzi ham o‘zlikdan uzilib, uzoqlashib ketdi.

Mustaqillik ona Vatanimizdagi Alloh nasib etgan barcha boyliklarimizni, qalblarimizni, hayotimizni ozod etdi, botinu zohirimizning ifodasi bo‘lgan tilimizni qadrsizlik, xorlik va kamsitish orqali nufuzidan ayirish uchun ochilgan yo‘llarni taqa-taq berkitdi. Demak, ona tilimizning yashashi, yurtimizda va dunyo xalqlari orasida o‘z munosib nufuziga ega bo‘lishi uchun eng muhim ijtimoiy-siyosiy sharoit ta’minlandi. Biroq...

Ayrim ma’ruzalar, hisobotlar va muloqotlarni tinglaganda, gaplarning muayyan qoliplarga tushib qolgani, so‘zlarning takroriyu iboralarning bir-biriga qovushmasligidan xuddi chanqoqdan tiling qurigani kabi qalbing qaqraydi. Nafaqat shoiru yozuvchi yoki madaniyat xodimi, balki elning e’tiborida bo‘lgan har bir shaxs tinglovchilarda, yoshlarda nutq madaniyatini tarbiyalovchi mas’ullar qatorida ekanini his etarmikan?

Beixtiyor ulug‘ allomalar yodga tushadi: bundan qariyb olti asr ilgari o‘sha zamon ziyolilarining “turk tilining qadrini bilmasliklari”ni, “har necha muloyimroq va latifroq voqe’” bo‘ladi deb, fikrlarini forsiy lafz bilan ifodalashdek “g‘alatini ko‘rgan va bu nuqsonni anglagan” Alisher



Navoiy Hazratlari “turk alfozining latofati va maoniyining latofati zohirini” namoyon etmoqqa umrini tikkan edi.

Tariximizdagi bunday ulug‘ zotlar ma’naviyatimiz tog‘laridir. Ular davlat va xalq taqdiri bilan bog‘liq o‘z zimmalaridagi zalvorli, murakkab vazifalarni bajarish, muammolarga yechim topish, elni katta maqsadlar sari birlashtirishning yo‘li ilmu zako, ilmu zakoning zohiri va kaliti esa til ekanini har lahza his etgan. Til dillarning to‘liq tarjimoni bo‘lishi yo‘lida uning qatra injusi-da yo‘qolmasligi, o‘z o‘rnida xizmatga shay bo‘lib yaraqlab turishi uchun kurashgan.

Keyingi o‘n yil ichida ona o‘zbek tilimizning mavqeini tiklash, barcha tashkilotu vazirliklarda hujjatlarni davlat tilida yuritish, turli lug‘atlar yaratish, yozuvimizni isloh qilish, tashkilot va ko‘chalar nomlarini, shuningdek, tashqi reklama hamda yozuvlarni tartibga solish bo‘yicha qator farmonu qarorlar qabul qilindi.

Lekin yaqin-yaqinlargacha kimlar uchundir fikrini boshqa tilda ifodalash, o‘zga tildagi matbuot nashrlarini o‘qish oson va yoqimli bo‘lgani kabi hozir ham xorijiy tilda gaplashish, o‘qish va yozishga tili oson keladiganlar toifasi shakllanib borayotgandek. Bu holatni, ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rganayotgan va o‘rgangan yoshlarning muloqotlarini kuzatganda yaqqol ko‘ryapmiz. Bundan bir necha yil oldin ko‘chalarda uchraydigan yozuvlarning imkon qadar o‘z tilimizda bo‘lishi masalasiga e’tibor kuchaygan, ayni mavzudagi hayotiy-tahliliy maqolalar, radio va teledasturlar jonlangan edi. Afsuski, bugun poytaxt va markaziy shaharlarning hamon shunday ko‘chayu manzillari borki, u yerdagi yozuvlar hamda qo‘yilgan tasvirlardan qayerda ekaningizni anglash mushkul. Yana bir og‘riqli masala: keyingi yillarda jamiyatimiz kitobxonligini oshirish borasida ijodkorlar asarlarini nashr etish sohasidagi izchil ishlar salmog‘i bundan oldingi necha o‘n yilliklar bilan solishtirib bo‘lmaydigan darajada baland va ibratli. Ammo davlatimizning bu e’tibori, g‘amxo‘rligini shoshma-shosharlik bilan “g‘o‘r” va g‘aliz, imloviy va mantiqiy xatoliklari behisob bo‘lgan “asar”larni chop etish hamda chop ettirishga zoye qilish hollari ham yo‘q emas.

Bir necha tilni bilmoq katta va izchil mehnat samarasi, fazilat, dunyo xalqlari bilan turli maqsadlarda hamkorlikka ochilgan yo‘ldir. Olimu ulamo ajdodlarimiz ham bir necha tilni mukammal bilgan, shu tillarda ilmiy, adabiy asarlar yozgan. Ular orasida turkiy til millatning asl o‘zligi sifatida barqaror bo‘lishi uchun kurashgan, Alisher Navoiy Hazratlari turk nazmida ko‘targan bayroqni asrlar sinovlaridan olib o‘tganlar juda ko‘p. Ular bu jihatdan ham avlodlarga o‘rnakdir, ammo xorijiy tillarni o‘rganish va qo‘llash zinhor “kelsa-kelmasa — o‘n besh” qabilida ona tilimizni cheklash, kamsitish va uni o‘rganmaslik hisobiga bo‘lmasligi kerak.

Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon “tarixlarda bitilgan tog‘larning va suvlarning, yerlarning va kishilarning otlari mo‘g‘ul tili va yo turk tili”da bo‘lsa-da, “kitob aytgan musanniflar, kotiblar bu tilni bilmasliklari bois” va “bu vaqtda turk va tojikda faqirga (muallifning shaxsiga turk tili borasida) bergancha (ilmu lafz) bergan kishi bo‘lmag‘an”ligidan, o‘zi tilning “rasmini va istilohlarini yaxshi o‘rganib”, “bu tarixni yaxshi va yomon — barchalari bilsun” deb, turkiy til bilan “Shajarai turk”ni “besh yashar o‘g‘lon ham tushunadigan” qilib yozgan edi.

Asrlar osha o‘z ahamiyatini, dolzarbligini yo‘qotmagan bunday muborak bitiklardan oydin ajdodlarimizning tilga, so‘zga bo‘lgan muhabbati, ixlosi, qayg‘usi va jondoshligining nafasi ufuradi.

“O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”. Bu qat’iyatli e’tirofda Abdulla Qodiriyning turkiy til saltanati himoyasiga tikilgan yuragining urishlarini his etasiz.

“Dunyoning eng boy va eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Ming yildan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir — yashar. Negakim boydir”. Abdurauf Fitratning bu xulosasini ham tarix tasdiqlab turibdi.

Ha, ming yildan buyon ezila kelgan boy tilimiz bitmadi, yashadi, ammo bu jarayon oson kechmadi. Endi Allohga beadad shukronalar bo‘lsin, hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi imon-e’tiqodimiz va tilimizga ham hech qanday bosim yo‘q. Ona tilimizning, avvalo, Vatanimizda va dunyo hamjamiyatida munosib nufuziga ega bo‘lishi, uning injularidan bir qatrasi ham to‘kilmay, xazinasi to‘lib, boyib borishi faqat o‘zimizga bog‘liq. Shunday paytda... hammani og‘ziga qaratib turgan mashhurning tili tovushlarning o‘zbekona talaffuziga qovushmasa... el nigohidagi qay bir amaldor minbardan turib so‘kinsa... qay bir hududlarda xorijiy tilda o‘qitiladigan maktablar soni o‘zbek tilidagi maktablarga nisbatan ko‘p bo‘lsa... universitetning o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini bitirgani haqidagi diplomi bo‘lgan yosh mutaxassis Alisher Navoiyning (misol uchun-da) “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari haqida bir fikr aytolmasa... qay bir ota-onalarga farzandining, avvalo, qalban va ruhan millatning qutlug‘ an’analari vorisi bo‘lishi emas, balki xorijiy tilni o‘rganib, dunyoga chiqishi muhim bo‘lib qolsa... tirikchilik ko‘yida dunyo moddiyotlarini uyimizga tinmay tashisag-u, ostonamizdan ichkariga kitob kirmasa, o‘zimiz kitob o‘qimasak, bolamizga kitob tutmasak va uni o‘qitmasak... kun bo‘yi uyda, jamoat joylarida quvonchliyu sinovli holatlarni boshimizdan kechirib, o‘rni kelganda “marhamat”, “shunday qilsam maylimi?”, “kechirasiz”, “agar ruxsat bersangiz”, “imkoniyatingiz bo‘lsa”, “juda xursand qildingiz” kabi dil izhorlarini aytishga tilimiz kelmay qolgan bo‘lsa, oqibati tilimizning mavqei va nufuzini tushirib boradigan bunday holatlar uchun ham faqat o‘zimiz aybdormiz.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi faqat o‘tmishdan so‘zlovchi maskan emas, balki kelajakni loyihalovchi, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi kuchli mayoq vazifasini ham o‘tab kelmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 17-oktabr, 215-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Nurli maskanlar

Insoniyat tarixida Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi poydevorini qo‘ygan ulug‘ sulolalardan biri, shubhasiz, temuriylardir. Sohibqiron Amir Temur asos solgan davlat nafaqat siyosiy qudrat, balki ilm-fan, madaniyat va shaharsozlikning yuksak cho‘qqisi sifatida jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan qayta-qayta e’tirof etiladi. Mamlakatimizda milliy qadriyatlar va tarixiy adolatni tiklash yo‘lidagi harakatlarda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ham alohida ahamiyatga ega. Muzey 1996-yil 18-oktabrda o‘z eshiklarini birinchi marta tashrif buyuruvchilar uchun ochgan edi.



TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI yosh avlodni vatanparvarlik va ajdodlarimizga ehtiromga o‘rgatadi



Davronbek OLIMJONOV,
O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi bo‘lim mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori



Komiljon SULTONOV,
muzey katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Faoliyatining dastlabki yillarida muzey fondida 600 dan ortiq eksponat saqlangan bo‘lsa, o‘tgan yillar davomida olib borilgan izchil ilmiy-ekspeditsion va yig‘uv ishlari natijasida bu ko‘rsatkich 7500 tadan ziyodga yetdi. Ular qatoriga Amir Temur va temuriylar davridagi qo‘l-yozmalar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me’moriy bezak qoplamalari, etnografik va numizmatik materiallar, shuningdek, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasiga oid astronomik asboblar majmuasi kiradi. Bu raqamlar muzeyning faqatgina saqlov maskani emas, balki faol ilmiy-tadqiqot markaziga aylanganidan dalolat beradi.

Prezidentimizning 2022-yil 27-maydagi “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida aynan Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini jahonning mashhur muzeylaridagi eng ilg‘or tajribalar asosida rekonstruksiya qilish, jihozlash va raqamlashtirishda boshqa muassasalar uchun namuna sifatida belgilab qo‘yilgan edi.

Zamon shiddat bilan rivojlanib, axborot texnologiyalari insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanayotgan bugungi davrda muzey faoliyatini zamon ruhiga moslashtirish zarurati yanada ortdi. Shu maqsadda Prezidentimiz 2026-yil 5-fevraldagi qarori bilan dunyodagi mashhur muzeylarning eng ilg‘or tajribalari asosida Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini rekonstruksiya qilish, jihozlash, raqamlashtirish va yangi ekspozitsiya yaratish vazifasi yakuniy bosqichga ko‘tarildi.

Ushbu tarixiy qaror muzey hayotida butunlay yangi sahifa ochdi. Asosiy maqsad faqatgina binoni ta’mirlash emas, balki milliy merosimizni zamonaviy, konseptual asosda raqamlashtirish edi. Qisqa fursatda muzey infratuzilmasi to‘liq yangilandi, bino eng zamonaviy texnologik qurilmalar hamda maxsus iqlim nazorati tizimlari bilan jihozlandi, ekspozitsiyalar esa xorijiy to‘plamlardan xarid qilingan noyob eksponatlar bilan boyitildi.

Rekonstruksiyadan so‘ng muzeyga qadam qo‘ygan har bir tashrif buyuruvchi o‘zini XIV–XV asrlar muhitiga tushib qolgandek his etadi. Muzeyning birinchi qavatida “Buyuk Sohibqiron — Ikkinchi Renessans asoschisi” deb nomlangan yangi bo‘lim tashkil etilgan. Unda Amir Temur shaxsi faqatgina buyuk sarkarda emas, ilm-fan va madaniyat homiysi, kuchli markazlashgan davlat asoschisi sifatida ilmiy asoslar bilan ochib berilgan. Ikkinchi qavatda esa sun’iy intellekt va “aqlli” texnologiyalar asosida Amir Temur davri va temuriylar tarixiga bag‘ishlangan interaktiv ekspozitsiyalar joylashtirilgan.

Muzey zallari raqamli texnologiya-larning chinakam namoyish maydoniga aylandi. Ko‘rgazma zallariga o‘rnatilgan maxsus avatarlar, yuqori sifatli LED ekranlar va proyeksion texnologiyalar tashrif buyuruvchilarga tarixiy voqealarni vizual tarzda his qilish imkonini beradi. 3D formatdagi eksponatlar hamda dinamik geografik xaritalar yordamida Amir Temurning harbiy yurishlari, saltanat chegaralari hamda Buyuk ipak yo‘lining rivojlanish trayektoriyalari yuksak aniqlikda namoyish etilmoqda.

Muzey ekspozitsiyasi zamirida yotgan asosiy ilmiy g‘oya temuriylar davrining jahon tamaddunidagi o‘rnini xolis baholashdir. Tarixchilarning ta’kidlashicha, XIV asr oxiri — XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan ilmiy-madaniy yuksalish G‘arbiy Yevropadagi Uyg‘onish davriga nisbatan ancha oldin boshlangan. Bu davr o‘ziga xos qator belgilarga — fan, san’at va shaharsozlikning uyg‘un rivojlanishiga ega edi.

O‘zbekiston tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri Ikkinchi Renessans, ya’ni Markaziy Osiyodagi ilk Uyg‘onish davrining mantiqiy davomi va yuksak nuqtasi sifatida baholanadi. Muzeyning ilmiy vazifasi esa ushbu tarixiy davrni arxiv hujjatlari, moddiy manbalar va zamonaviy raqamli vositalar orqali xolis, ilmiy asosda xalqqa, xususan, yosh avlodga yetkazishdan iboratdir.

“Ikkinchi Renessans” tushunchasi faqat milliy tarixshunosligimizgagina xos emas. Xalqaro, jumladan, G‘arb tarixshunosligida ham ushbu davrga nisbatan “Temurid Renaissance” (“Temuriylar Renessansi”) atamasi keng qo‘llaniladi. Xorijlik tadqiqotchilar Shohruh Mirzo va uning zavjasi Gavharshodbegim hukmronlik qilgan Hirot shahrini o‘zining ijtimoiy-madaniy ahamiyati jihatidan italyan Renessansining markazi bo‘lgan Florensiya shahriga qiyoslaydilar. Ko‘plab tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Markaziy Osiyodagi ushbu ilmiy-madaniy yuksalish Yevropadagi Uyg‘onish davriga nisbatan vaqt nuqtai nazaridan avvalroq boshlangan va o‘xshash belgilarga ega bo‘lgan.

Bunday xalqaro ilmiy e’tirof Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyatining nafaqat milliy, balki umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishini yanada mustahkamlaydi. Bu esa muzey ekspozitsiyalarini nafaqat vatandoshlarimiz, balki xorijlik tarixchilar va sayyohlar uchun ham qimmatli ilmiy manbaga aylantirib, O‘zbekistonning jahon tarixiy-madaniy xaritasidagi o‘rnini yanada oydinlashtiradi.

XX asr oxirida shakllangan va asos-chilaridan biri sifatida ingliz olimi Piter Vergo tilga olinadigan “yangi muzeologiya” (New Museology) nazariy yo‘nalishi muzeylarni, avvalo, ashyo saqlovchi muassasalar emas, balki tomoshabin bilan faol muloqotga kirishuvchi, ta’lim va tarbiya funksiyasini bajaruvchi institutlar sifatida qabul qilish zarurligini ilgari suradi. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo muzeylarining katta qismi (ayrim baholarga ko‘ra, 80 foizdan ortig‘i) o‘z kolleksiyalarini raqamli formatga o‘tkazish jarayonini boshlab yuborgan.

Temuriylar tarixi davlat muzeyining sun’iy intellekt, avatar texnologiyalari va interaktiv 3D yechimlar asosida yangilanishi aynan mana shu global paradigma o‘zgarishining O‘zbekistondagi amaliy ifodasidir. Boshqacha aytganda, muzey nafaqat milliy darajada, balki zamonaviy jahon muzeyshunosligi andozalari nuqtai nazaridan ham raqobatbardosh ilmiy-ma’rifiy markazga aylanib bormoqda.

Muzey tarixidagi eng unutilmas voqealardan biri buyuk ajdodimiz Amir Temur tavallud topgan qutlug‘ ayyom arafasida, ya’ni joriy yil aprel oyida Prezidentimizning ushbu maskanga tashrifi bo‘ldi. Davlatimiz rahbari yangilangan ekspozitsiyalar, sun’iy intellektga asoslangan interaktiv loyihalar va noyob osori atiqalar bilan tanishdi.

Bugungi kunda Temuriylar tarixi davlat muzeyi faqat o‘tmishdan so‘zlovchi maskan emas, balki kelajakni loyihalovchi, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi kuchli mayoq vazifasini ham o‘tab kelmoqda.

Tarixiy bilimlarni raqamli vositalar orqali uzatish yosh avlodda shunchaki ma’lumot bazasini emas, balki emotsional bog‘liqlik va faxr tuyg‘usini ham shakllantiradi. Avatar texnologiyalari yordamida “jonlantirilgan” Sohibqiron obrazi hamda 3D xaritalar orqali ko‘z o‘ngida gavdalanadigan Buyuk ipak yo‘li — bularning barchasini yosh tomoshabin tarixni quruq sanalar majmui emas, balki yashab turgan, real his etiladigan voqelik sifatida qabul qiladi.

MEHMONDO‘STLIK QALB RISHTALARINI BOG‘LAYDI

Biz — mehmondo‘st xalqmiz. Ochiq dasturxonli, ochiq chehrali odamlarning do‘sti ko‘p bo‘lgay. Bunday insonlarning hamkorlari, o‘rtoqlari, ulfatlari va oshnolari ham bisyordir.
Xalqimiz orasida “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan”, “Mehmon ortidan qut-baraka keladi” yoki “Mehmon — atoyi Xudo” kabi hikmat va maqollar bor.

Qadriyatlarimiz



Zulfiya MO‘MINOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi

Uzoq ko‘rishmagan, sog‘ingan jigarlarimizning uyimizga kelishi bayramga o‘xshaydi. Bir vaqtlar biz bilan birga o‘qigan, birga ishlagan, birga harbiy xizmatda yoki xizmat safarlarida bo‘lgan do‘stlarning mehmonga kelishi ham cheksiz quvonch bag‘ishlaydi. Ularni ko‘rganingda yana o‘sha hayot tashvishlari va quvonchlari, ular bilan birga boshdan o‘tkazgan kunlaring yodingga tushadi. Boshqatdan zavqlanasan, qiyinchiliklarni birgalikda yenggan bo‘lsang, qaytadan yengil tortasan. Ularning yonida ko‘ngling yayraydi, o‘zingni qushdek qanotli sezasan. Ular bilan birga yegan taomlaring totli, birga ichgan bir piyola choying shifobaxsh bo‘lib tanangni davolaydi.

Mehmon ketgandan keyin esa bir narsangni yo‘qotgandek, borlig‘ing huvillab qolgandek bo‘ladi. Ammo ularni chaqirganing, mehr ko‘rsatganing va diydoriga to‘yganingdan zavqlanasan. Ular ko‘nglingga yanada yaqinlashadi. Xursand-ligingdan tez orada yana ko‘rishadigandek, o‘z hayot tashvishlaringda xotirjam davom etasan. Aslida esa unday emas. Bu tezkor zamonda tezda ko‘rishishning iloji yo‘q. Yana qachon ko‘rishasan? Ko‘risharmikansan?

Yaxshilar bilan har bir uchrashuv Allohning senga marhamatidir. Agar Alloh nasib etmasa, bir daqiqa ham birov dasturxoning atrofida o‘tirmaydi. Agar Xudoning irodasi bo‘lmasa, chorlab chaqirsang ham birov huzuringda paydo bo‘lmaydi.

Keyingi yillarda mehmon kutish va mehmondo‘stlik kabi qadriyatlarimizdan yiroqlashib borayotgandekmiz. Bir-birimizni mehmon qilish bahonasida kafe yoki restoranlarga chaqiryapmiz. Bunday jamoat joylarida dasturxon ming xil noz-ne’mat bilan bezatilgan bo‘lsa-da, chin yurakdan gaplasha olmaysan. Qandaydir qadrdon muhit yetishmaydi. Sababi, kafe yoki restoran uying, o‘z ro‘zg‘oring emas. U yerda bolalaring yo‘q. Ko‘pincha bu uchrashuv bir necha xil ovqatni birga yeyish uchun kelingandek taassurot qoldiradi. Atrofingda mutlaqo begona qiyofalar, begona suhbatlar. Davralar tashkil etib tog‘u qirlarga borish, dala hovlilarda yoki daryo va dengizlar sohilida hordiq chiqarish (bu ko‘proq erkaklarning dam olish tarziga aylangan), yeb-ichish hali haqiqiy mehmondo‘stlik emas.

To‘g‘ri, dilkash davralarni ham tashkil etib turish kerak. Bunday joylarda mehnat jamoang bilan, manfaatli hamkorlar yoki biror maslahatli ishing bor odamlar bilan uchrashish mumkin. Buni oilaviy yig‘in emas, balki, nazarimda, “sen mehmon qilding” emas, “sen taklif qilding va pulini to‘lading”, deb tushunish kerak. Barakalla, bu ham hammaga emas. Bu ham boringni baham ko‘rishdek gap. Ammo o‘zbek mehmondo‘stligi boshqacha.

Haqiqiy mehmon kutish nuroniylar duosi bilan boshlanadigan, bola-chaqa davrasida, o‘z qo‘ling bilan yasatilgan dasturxon atrofida bo‘ladi.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov “Do‘st bilan obod uying” she’rida bunday yozadi:

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham.
Do‘st qadam qo‘ymas esa
Vayronadir koshona ham.
Intizor har uy dilovar,
Dilkusholar bazmiga.
Gar oyoq qo‘ysa qabohat,
Yig‘lagay ostona ham.

She’r oxirini ustoz shoirimiz bunday yakunlaydi:

Do‘sti sodiq yo‘q ekan, deb
O‘rtanib kuyma va lek.
Mehr uyin keng ochsang, Erkin,
Do‘st bo‘lur begona ham.

Ha, mehr uyi — biz yashayotgan uy. Mehr uyi — bizning qalbimiz.

Mehr uyini keng ochganimiz sari umrimizga, kasb-korimizga xayru baraka kirib kelaveradi. Bir-birimiznikiga bormasak, do‘stu qadrdonlar bilan yuz ko‘rishmasak, qo‘ni-qo‘shnining holidan boxabar bo‘lmasak, odamgarchiligimiz qayerda qoladi?

Jigarlar bilan sirlashmasak, vaqtimizni, halovatimizni qizg‘ansak, borib-borib yaponlarni yoki Yevropaning ayrim davlatlarini egallab bo‘lgan yolg‘izlik musibatlari hayotimizga sezdirmay kirib keladi. Buni hozirgi zamon tili bilan “komfort hudud” desalar, bizning o‘zbekona, eskilarning tilida “yakkapes”, “yakkamoxov” degani bo‘ladi.

Ajdodlarimiz juda chiroyli so‘zlar bilan bir-birini siylagan. Og‘ir daqiqalarda ham eng chiroyli so‘zlarni ishlata olgan. Ammo odamlarni yoqtirmaydiganlarga, mehmonga bormaydigan va mehmon chaqirmaydiganlarga, qarindosh-urug‘ni sog‘inmaydiganlarga nisbatan “yakkapes”, “yakkamoxov”, “odamovi”, “odam isi yoqmas” kabi so‘zlarni ishlatgan. Toki inson zoti ko‘pchilikning davrasida bo‘lsin. Ko‘pchilik bilan topganini baham ko‘rsin. Ko‘pchilik bo‘lib duolar qilsin. Ko‘pchilik bo‘lib ezguliklarni amalga oshirsin. Birlashsin.

Qadimda bir uyga ketma-ket mehmon kelaverganidan xonadon bekasi: “Biznikiga buncha mehmon ko‘p keladi, men charchab ketdim. Ro‘zg‘orimizning badastirligi mehmon ko‘p kelishidan emas, tinmay mehnat qilganimizdan”, deya noliy bosh-labdi.

Ayolining xarxashalaridan bezor bo‘lgan erkak bir donishmand avliyoning oldiga borib: “Ayolim uyimizga kelgan mehmonlarni tobora yomon ko‘rib bormoqda. Bu ketishda qarindoshlarimdan ham ajralib qoladiganga o‘xshayman, maslahat bering, yordam bering”, debdi.

Shunda donishmand avliyo: “Ayolingga ayt, bu safar mehmon kelganda uni ochiq chehra bilan kutib olsin va ketayotganida mehmonning ortidan sinchiklab nazar solsin”, debdi. Erkak ayoliga bor gapni aytibdi. Ayoli kelgan mehmonni mehr bilan kutib olibdi, mehmon ketayotganida esa ortidan diqqat bilan razm solibdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, mehmonning ortidan bir gala ilonlar, chayonlar va boshqa zaharli jonzotlar sudralib chiqib ketayotgan ekan.

Bu holatdan hayratga tushgan ayol eri bilan donishmand avliyoning yoniga borib, ko‘rganlarini bayon etibdi. Shunda donishmand: “Mehmonning ortidan sizlarning uyingizga kelgan ziyon-zahmat, yo‘qchilik, ochlik va yetishmovchiliklar, turli kasallik va musibatlar ilon, chayon, zararkunanda hasharotlar hamda zaharli jonzotlar shaklida tark etadi. Har safar mehmonning ortidan balo-qazo shunday sezdirmay ketadi. Sizlar esa buni ko‘rmaysizlar. Aslida, mehmon kelmay qolishidan qo‘rqish kerak”, debdi.

Mehmonlar kelganda ham: “Biz keldik, balo kelmasin!”, “Shu xonadondan xayru baraka arimasin”, deya duolar qiladi.



Maqolamiz boshida “Mehmon — atoyi Xudo” hikmatini ishlatdik. Zero, bu gapni biz o‘ylab topganimiz yo‘q. “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan” degan gapni ham biror shoir yoki donishmand diliga Alloh solmasa, ayta olmaydi.

O‘zbek mehmondo‘stligida uzoqlashgan rishtalar qayta ulanadi, qalinlashadi. Qon-qardoshlik tushunchalari yosh avlod qalbiga singdiriladi. Bolalar bir-birini taniydi. Bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan bo‘ladi. Bir-birining oldida mas’uliyati borligini tushuna boradi. Zero,

Do‘stlar tarqagan yerga
dushman kelar, yoronlar,
Shukr tark etgan tilga
shayton kelar, yoronlar.
Ko‘ngli ochiqqa omad,
dasturxoni ochiqqa,
Qutu baraka olib
mehmon kelar, yoronlar.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.